

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

**Qo'lyozma huquqida
UDK: 336.22**

KARIMOV DILSHOD TURABBOEVICH

**O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

Mutaxassislik: 5A230601-«Davlat moliyasini boshqarish»

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

dots. Dodiev F.

TOSHKENT-2018

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti «Moliya» kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar

dots. Dodiev F.

Kafedra mudiri

i.f.d., prof. T.Malikov

Magistratura bo'limi boshlig'i

i.f.n., dots. U.Ortiqov

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. ERKIN IQTISODIY ZONALARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI.....	8
1.1. Erkin iqtisodiy iqtisodiy zonlarni tashkil etishning nazariy asoslari.....	8
1.2. Erkin iqtisodiy iqtisodiy zonlarni tashkil etish huquqiy asoslari.....	15
1.3. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda xorij tajribasi.....	27
I bob bo'yicha xulosa.....	35
II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI TAHLILI.....	37
2.1. "NAVOIY", "ANGREN", "JIZZAX" erkin iqtisodiy zonalari faoliyati tahlili.....	37
2.2. URGUT, G'IJDUVON, QO'QON VA HAZORASP erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning amaliyoti.....	57
II bob bo'yicha xulosa.....	64
III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ERKIN IQTISODIY ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	66
3.1. Erkin iqtisodiy zonalarning rivojlantirish yuzasidan Xitoy tajribasi.....	66
3.2. Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalar jalb qilish va rivojlantirish istiqbollari.....	73
III bob bo'yicha xulosa.....	77
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	83

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Tadqiqot ishning dolzarbligi eng avvalo, respublikamizga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, ularni rivojlantirishning moliyaviy masalalarini o'rganish va O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini rivojlantirish holati tahlilini o'rganib vujudga kelgan muammolar hamda ularni hal etish yo'llarini bayon qilish bilan xususiyatlanadi. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishishning muhim yo'nalishlaridan biri barcha ichki manbalardan unumli foydalanish hamda xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishdir. O'zbekiston iqtisodiyotining jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashuvi sharoitida mamlakatimizda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish siyosatini amalga oshirish va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarib xorijga eksport qilish va shuningdek import o'rnini bosuvchi yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni joriy qilishda erkin iqtisodiy zonalaridan foydalanish, shuningdek, mamlakatimizda "ochiq eshiklar siyosatini" amalga oshirish hamda xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish borasida rivojlangan davlatlarning, ayniqsa, jahon xo'jaligida tezkor sur'atlarda rivojlangan mamlakatlarning, jumladan, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya, Xitoy kabi mamlakatlarning tashqi savdo-sotiq siyosati tajribalaridan unumli foydalanish milliy iqtisodiyotimizning taraqqiyotiga ijobiy samara beradi.

Shunga ko'ra, milliy iqtisodiyotni shakllantirishda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish orqali mamlakatning tashqi savdo-sotiq jarayonini va eksport salohiyatini yuksaltirish masalasi, mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos jihatlarini hisobga olishni, ayniqsa, jahon iqtisodiyoti amaliyotida to'plangan tajribalar va xalqaro qonun-qoidalar asosida mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilish borasida va ularni tartibga solish usullarini yanada takomillashtirish zarurligini talab etadi. Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishda va undagi faoliyatlarni samarali olib borishda xorij mamlakatlarining tajribalaridan va

ularning usullaridan unumli foydalanish hozirgi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanib mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakatimizda jahon andozasiga mos ravishda yuqori texnologiyalar asosida sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish tizimini bugungi kun darajasiga ko'tarish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov shunday degan edi:

“Iqtisodiyotni, avvalo, ishlab chiqarish sohalarini oqilona tashkil qilish, ularga yuksak texnologiyalarni joriy etish, shu asosda zamonaviy korxonalar barpo etib, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish, bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda jahon andozalariga mos, xalqaro bozordagi raqobatga bardosh bera oladigan tizimni yaratish bizdan, shubhasiz, katta vaqt, mehnat va shijoatni talab qiladi”¹. Shuningdek, bugungi kundagi muhim ustivor yo'nalishlar va investitsiyalarni jalb qilish haqida to'xtalib shunday degan edilar:

“Bugungi kunda iqtisodimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatbardoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustivor loyihalarni amalga oshirish bo'yicha Dastur ishlab chiqilmoqda. Shu borada, dastlabki xisob-kitoblarga ko'ra umumiy qiymati 24 mlrd. AQSh dollaridan ziyod bo'lgan qariyb 300ta investitsiya loyihasi ustida ishlamoqdamiz² Hozirgi kunda “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasini aytadigan bo'lsak, o'tgan 8 yil mobaynida u yerda atigi 24 ta loyiha amalga oshirilib, ularda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushi juda past va atigi 900 ta odam ishga joylashtirilgan. O'tgan yili esa mahsulot ishlab chiqarish hajmi 24 foizga pasaygan.³ Milliy iqtisodiyotning yangi sifat holatiga erishuvi, mamlakat hududlari iqtisodiyotining rivoji investitsiyalarni va kreditlarni qay darajada jalb qilish va ulardan qanchalik samarali foydalanish darajasiga bog'liqdir. Alohida hudud iqtisodiyotini rivojlantirishning samarali yo'llaridan biri - shu hududda erkin iqtisodiy zonani tashkil etishdir. Chunki, ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan

¹ Karimov I.A. “O'zbek xalqi xech qachon, xech kimga qaram bo'lmaydi” T.: “O'zbekiston”, 2000y. T.8. - 105 bet.

² Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” T. “O'zbekiston” 2009y. 37-bet.

³ Mirziyoyev.Sh.M.”Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.” “O'zbekiston” 2017y. 29- bet .

mamlakatlarda bir necha turdagi erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etilishi, shu mamlakat iqtisodiyotining rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va ular faoliyatini yanada rivojlantirish, shuningdek, erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirishning moliyaviy masalalari bo'yicha turli mamlakatlar tajribasini kengroq o'rganish va uni O'zbekiston amaliyotida qo'llashning zarurligi hozirgi dolzarb vazifalardan biridir. Ana shu ma'noda tanlangan mazkur tadqiqot ish mavzusi hozirgi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning moliyaviy masalalarini xorij tajribasini samarali tashkil etishni o'rganish va erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirishning moliyaviy masalalarini samarali olib borishni istiqbollari hamda takomillashtirish predmeti bo'lib hisoblanadi. Respublikamizda va rivojlangan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va rivojlantirish sohasidagi tajribalari ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish faoliyatini o'rganish hamda uni rivojlantirishning moliyaviy holatini tahlil qilish hamda iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni rolini oshirish masalalariniga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning moliyaviy masalalari nazariy-uslubiy jihatlarini o'rganishda quyidagi vazifalarni keltirish mumkin:

- erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va rivojlantirishning nazariy-asoslarini bayon etish;
- O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining me'yoriy- huquqiy asoslarini o'rganish;
- mamlakatda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining moliyaviy asoslarini bayon etish;
- O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish faoliyati tahlilini amalga oshirish;

- milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini moliyaviy rag ‘batlantirishni ko’rib chiqish;

- milliy iqtisodiyotda erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni amalga oshirishda iqtisodiy-huquqiy asoslarini o’rganish, O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qilish;

- erkin iqtisodiy zonalarda xorijiy investitsiyalarni faoliyatini amalga oshirishning tahlili

- mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning moliyaviy masalalarini takomillashtirishning xorij tajribasini o’rganishni yoritishdan iborat.

Ilmiy yangiliklar. Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning moliyaviy masalalari nazariy-uslubiy jihatlarini o’rganishda quyidagi ilmiy yangiliklarni keltirish mumkin:

- erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va rivojlantirishning nazariy-asoslarini bo’yicha ta’rifi berildi;

- erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining me’yoriy- huquqiy asoslari bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;

- mamlakatda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining moliyaviy asoslarini oshirishning ustuvor yo’nalishlari belgilab berildi;

- erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish faoliyati tahlili bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;

- milliy iqtisodiyotda erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni amalga oshirishda taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;

- erkin iqtisodiy zonalarda xorijiy investitsiyalarni faoliyatini amalga oshirish bo’yicha

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Magistrlik dissertatsiya ishi yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo’llanilishi mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish istiqbollarning samarali tashkil etilishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Jahon iqtisodiyoti amaliyotida erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishdagi to'plangan tajribalar va xalqaro qonun-qoidalar asosida mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilish hamda xorijiy investitsiyalarni samarali tashkil etish masalalariga oid muammolarni tadqiq etish bo'yicha o'zining alohida hissalarini qo'shgan respublikamiz iqtisodchi-olimlari Vahobov A.V., Malikov T.S., Haydarov N.H., Jo'raev A.S., Z.Yo'ldoshevlar⁴, shuningdek, xorijlik iqtisodchi-olimlar Aleshin V.A., Zotova A.I., Neshitoy A.S., Polyaka G.B., Shaxovskaya L.S., Xoxlov V.V., O.G.Kulakovalarning ilmiy ishlari, o'quv qo'llanmalari va darsliklarini nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilgan holda dissertatsiya tayyorlashda foydalanildi.⁵

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Dissertatsiya jarayonida mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv, strategig tahlil, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish, statistik hisoblash va ilmiy bashoratlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ishda keltirilgan nazariy va amaliy takliflar respublikamizga chet el investitsiyalarini jalb qilish, erkin iqtisodiy hududlardagi dolzarb muammolar va rivojlantirish yo'nalishlari, investitsion faoliyatni samarali tashkil etish va tartibga solish amaliyotida qo'llanishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot ishining materiallaridan investitsiyalarga doir fanlardan o'quv dasturlarini takomillashtirishda hamda o'quv-uslubiy majmualar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishi tarkibining tavsifi. Tadqiqot ishida o'rganilayotgan masalalarning mohiyatidan kelib chiqib kirish, uchta bob, har bir bob bo'yicha xulosa, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

⁴ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – 316 b.; Jo'raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. – Toshkent: "Fan", 2004. – 243 b.; Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – Toshkent: "Akademiya", 2002. – 204 b.; Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari: O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – 256 b.; Yo'ldoshev Z., Malikov T. Uy xo'jaligi moliyasi. o'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA", 2008. - 105 b.; Malikov T.S., Haydarov N.H. Moliya: umumdavlat moliyasi. / O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2009. – 556 b.


⁵ Алешин В.А., Зотова А.И.. Финансы: учебник. - Ростов н/ Д: Феникс, 2009 г. – 346 стр.; Нешитой А.С. Финансы. Учебник. – М.: "Дашков и К", 2009 г. – 528 стр; Поляк Г.Б. Финансы и кредит. Учебник.– М.: Влотеерс Клувер, 2010 г. – 800 стр.; Шаховская Л.С., Хохлов В.В., Кулакова О.Г. и др. Бюджетирование: теория и практика: учебное пособие / – М.: КНОРУС, 2009 г. – 400 стр.

I BOB. ERKIN IQTISODIY ZONALARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Erkin iqtisodiy iqtisodiy zonlarni tashkil etishning nazariy asoslari

Bugungi kunda zamon taraqqiyot etayotgan bir vaqtda davlatlar ertangi kelajagi va bugunini o'ylab turli xil ishlar olib boradi. Bunga sabab davlatlarning rivojlanishi, o'sib kelayotgan yosh avlodni ertangi kelajagi uchun ularni ish bilan ta'minlash maqsadida mahalliy va xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilib o'zi bosh islohatchi bo'lib turli xil sohalarga moslashgan faoliyat olib borishga harakat qiladi. Shulardan misol tariqasida erkin iqtisodiy zonalaridir. Erkin iqtisodiy zona – davlatlararo kelishuvlarga yoki maxsus qonunlarga muvofiq, xo'jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, bojxona va erkin valyuta konvertatsiya, huquqiy sharoitlar joriy qilanadigan joydir. Xorijiy va mahalliy tadbirkorlarni jalb etish maqsadlarida tashkil etiladi va ularda zarur ishlab chiqarish va ish yuritish infratuzilmasi barpo etiladi. Erkin iqtisodiy zonalar ko'p hollarda davlatlararo tutash hududlarda (bir necha davlatlarning chegaralari tutashgan hudud), xalqaro aeroportlar, port shaharlarda (Masalan Malayziya yoki Janubiy Koriya) yoki transport yollari tutashgan hududlarda (Buyuk ipak yo'li o'tgan davlatlar yoki Yevropa ittifoqi hududlari).

Erkin iqtisodiy zonalarda alohida xalqaro huquqiy status joriy qilinadi. Lekin u qayerda joylashishidan qat'iy nazar, shu mamlakatning ajralmas bo'lagi hisoblanadi, barcha amaliyotlar (yer ajratish firma va kompaniyalarni tashkil etish, chegaradan yuklarni, tovarlarni olib kirish va olib chiqish). Xorijiy va mahalliy tadbirkorlarni jalb etish maqsadlarida tashkil etiladi va ularda zarur ishlab chiqarish va ish yuritish infratuzilmasi barpo etiladi. Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishdan maqsad ko'plab yangi texnologiya, investitsiyalarni jalb qilib, rivojlangan iqtisodiy makon yaratish va shu yo'l bilan mamlakat iqtisodiyotini tezkorlik bilan rivojlantirishdir.




1.1-rasm. EIZlarning xo'jalik faoliyati ixtisoslashuviga ko'ra guruhlanishi⁶

⁶ Андрианов И.Д. Россия экономический и инвестиционный потенциал. Москва Экономика, 1999.-467с. Смородинская Н. Белова Г., Богачева О.и др. Свободные экономические зоны: уроки мировой практики. Москва-Находка: 1993.-107 с.

Erkin iqtisodiy zonalarining har xil turlari mavjud: erkin omborxonalar, erkin bojxona zonolari, ilmiy texnika zonolari. Misol uchun ular AQShda texnoparklar, Yaponiyada texnopolislar deb ataladi. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar (asosan, eksportga ixtisoslashgan) ham mavjud. Dastlabki, erkin iqtisodiy zonalaridan biri Irlandiyada "Shennon" aeroportida (1959) tashkil etilgan. Keyinroq shunday zona Angliyadagi "DogAylend" aeroportida paydo bo'ldi. Ba'zi erkin iqtisodiy zonalar ancha yirik hududlarda tashkil etiladi. Masalan, Braziliyadagi Manaus, Xitoydagi maxsus iqtisodiy hudud "Shenjen" va boshqalar shunday zonalaridir. Jahon amaliyotida Erkin iqtisodiy zonalar rivojlangan (Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, AQSH va boshqalar), shuningdek, rivojlanayotgan (Braziliya, Koreya Respublikasi, Malayziya va boshqalar) mamlakatlarida ham tashkil etildi. Erkin iqtisodiy zonalariga chet el kapitalini jalb qilish Xitoy siyosatida ancha keng qo'llanildi. 20-asr oxirlarida Erkin iqtisodiy zonalar Birlashgan Arab amirliklari, Rossiya va Polshada tashkil etildi. Rossiya va Xitoy hamkorligida tashkil etilgan Blyagovanichensk — Xeyxe, Qora dengiz bo'yi, Kaliningrad viloyatidagi "Yantar" Erkin iqtisodiy zonolari ham shunday makonlardir.

O'zbekistonda Erkin iqtisodiy zonalar g'oyasi milliy iqtisodiyot taraqqiyoti uchun ijobiy baholandi. Shu bois 1996 yilning 25 aprelda mamlakat parlamenti O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida" qonunini qabul qildi. Bu qonun chet el investitsiyalari, savdo va sanoat sohalarining rivojlanishi, Bu esa aholini ish bilan ta'minlashni yaxshilash uchun qulay sharoit yaratishga me'yoriy huquqiy asos yaratildi.

Erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilishda ikkita konseptual yondoshish qo'llaniladi: hududiy va funkstional (nuqtali). Birinchi holatda hududdagi barcha rezident korxonalar xo'jalik faoliyatida imtiyozlardan foydalanadilar.



1.2-rasm. Iqtisodchi olimlarning EIZ xaqidagi tariflari⁷

⁷ Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi


Har bir hudud, taraqqiyotning har bir darajasida bo'lgan davlatlar erkin iqtisodiy zonalar bobida o'ziga xos jihatlarga ega. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda erkin iqtisodiy zonalar o'ziga xos belgilari quyidagilar:

- hudud chegaralari kengayish tendentsiyasiga ega, savdo-ishlab chiqarish faoliyati esa o'sib borish tendentsiyasiga ega;
- xorijiy tadbirkorlar uchun erkin iqtisodiy hududlarda alohida boshqarish tartibi, iqtisodiyotni doimiy ravishda liberallasuvi xos;
- erkin iqtisodiy zonalar faoliyatida katta miqdorda sanoat-savdo diversifikatsiyasi, kompleks rivojlanish tendentsiyasi xos;
- yangi va yuqori texnologiyalar ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan ilm ko'p talab qiluvchi ishlab chiqarishni rivojlantirishga alohida e'tiborning mavjudligi.
- erkin iqtisodiy zonalarda tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun turli iqtisodiy imtiyozlar beriladi, masalan:
 - fiskal imtiyozlar. Bu asosan soliqlardan ozod qilish, soliqqa tortish bazasini kamaytirish, alohida soliq stavkasini pasaytirish, alohida olingan soliqlardan ozod etish shakli;
 - moliyaviy imtiyozlar. Bu asosan har xil subsidiyalar, kammunal xizmatlar ta'rifini (bahosini) pasaytirish yoki umuman to'lamaslik, davlat kreditlaridan foydalanish bo'yicha foizlarni pasaytirish kabilar;
 - ma'muriy imyozlar. Bu imtiyozlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni davlat ro'yhatidan o'tkazishning soddalashtirilgan shaklini qo'llash, chet el fuqorolarini mamlakatimizga kelib ketishi rejimini soddalashtirish, ularga har xil xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yordam berish.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash va jahon xo'jalik tizimiga chuqurroq integratsiyalashish o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Bunday mamlakatlar milliy iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erkin iqtisodiy zonalar yaratish va ular faoliyatini yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Investorlarga keng soliq imtiyozlari va preferensiyalar berilgan

“Angren” erkin iqtisodiy zonasi, “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi, “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasining tashkil etilgani yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonalarni rivojlantirish, jahon talablariga mos, sifatli va raqobatbardosh maxsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish, yangi ish o’rinlarini yaratish va pirovardida, aholining turmush sharoitini ko’tarish imkoniyatini yaratadi.

EIHni tashkil etishning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik va boshqa maqsadlariga iqtisodiyotda xorijiy investorlar uchun bir qator qulay shart-sharoitlar yaratilishi orqali erishish mumkin. Quyidagi rasmda EIHlarni normal faoliyat yuritishi uchun zarur bo’lgan eng muhim shart-sharoitlar ifodalangan (3-rasm).



1.3-rasm. EIHni faoliyat yuritishi uchun zarur bo’lgan shart-sharoitlar⁸

EIHni rivojlanishining eng asosiy omillaridan bo’lib investorlar uchun yaratilgan imtiyozlar tizimi hisoblanadi. Har bir mamlakat yoki undagi hudud EIH tashkil etilishida imtiyozlar to’plamini belgilab beradi. Jahon amaliyotining ko’rsatishicha, har bir EIHdagi imtiyozlar to’plami o’ziga xos bo’lib, ularning mazmuni shu mamlakatda amalga oshirilishi mo’ljallangan investitsion dasturlar va loyihalarga bog’liq. Shu bilan birga iqtisodiy adabiyotlarda EIHlarda belgilangan imtiyozlarni to’rtta guruhga birlashtiriladi (4-jadval).

Jahon tajribalarining ko’rsatishicha, yuqorida qayd etilgan barcha imtiyozlar bir-biri bilan chambarchas holda turli kombinatsiyalarda uchratish mumkin, lekin shuni qayd etib o’tish kerakki, imtiyozlar har doim ham xorijiy kapitalni jalb etishning asosiy hal qiluvchi rag’batlantirish omili bo’la olmaydi.

⁸ Muallif tomonidan iqtisodiy adabiyotlarni o’rganish asosida tuzildi.

EIHlarda belgilangan imtiyozlar guruhlar⁹

Imtiyozlar guruhlar	Mazmuni
1. Tashqi savdo bo'yicha imtiyozlar	Tashqi savdo operatsiyalariga maxsus bojxona rejimini, imtiyozli soliqlarni qo'llash va ularni engillashtirilgan tartibini, shuningdek, maxsus valyuta rejimini joriy etish.
2.Soliqlardan imtiyozlar	Ma'lum bir sohalarni va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga doir soliq imtiyozlari joriy etiladi. Imtiyozlar turli soliqlarning soliqqa tortiladigan bazalariga joriy etilishi mumkin (daromad yoki foyda, mol-mulk va b.); turli soliqlarning soliqqa tortiladigan bazasining maxsus komponentlariga imtiyozlar joriy etilishi mumkin (amortizatsiya ajratmalari, ITTKI uchun xarajatlar, ish haqi va b.); imtiyozlar soliq stavkalari miqdoriga, soliqdan doimiy yoki vaqtinchalik ozod etish masalalari bo'yicha joriy etilishi mumkin.
3.Moliyaviy imtiyozlar	Turli shakllarda subsidiyalar berishni qamrab oladi, ya'ni kommunal xizmatlar uchun past narxlarni, er uchastkalari va ishlab chiqarish joylariga pasaytirilgan ijara to'lovlarini to'lashni (sh.j. uzoq muddatli ijara va subijaraga berish imkoniyatlarini), shuningdek, davlatning imtiyozli kreditlarini qamrab oladi.
4. Ma'muriy imtiyozlar	Investorlarga infrastruktura vositalaridan foydalanish huquqlari berishni, korxonalarni ro'yhatdan o'tkazish jarayonini hamda chet el fuqarolarini kelish va ketish rejimlarini qisqartirishni, shuningdek, biznesni qo'llab-quvvatlashga doir turli xizmatlarni ko'rsatishni (bozor kon'yukturasi bo'yicha tezkor ma'lumotlarni taqdim etish, biznes-rejalarni tayyorlash va boshqalarni) qamrab oladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, EIHlarni tashkil etish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin: iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, iqtisodiyotni erkinlashtirish, xorijiy va mahalliy kapitalni jalb etish, jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, xom ashyo eksportini tayyor mahsulot eksportiga aylantirish, mamlakatga valyuta tushumlarining kirib kelishini ta'minlash, moliya sohasini rivojlantirish, inson salohiyatiga investitsiyalarni ko'paytirish, mamlakat hududlarini har tomonlama rivojlantirish, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish va hokazo.

⁹ Muallif tomonidan iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish asosida tuzildi.

Shubhasiz, dunyo amaliyotida yaxshi niyatlar bilan tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlar faoliyati muvaffaqiyatsizlikka uchraganlari ham yetarlicha topiladi. Masalan, Shri Lanka, Gvatemala, Liberiya, Senegal va boshqa davlatlarda turli ko'rinishdagi EIZlar butkul faoliyatini to'xtatdi. Buning asosiy sabablari sifatida siyosiy (mamlakatdagi umumiy nobarqarorlik, fuqarolar kelishmovchiliklari), iqtisodiy (investor nuqtai nazaridan juda murakkab investitsion qonunchilik), tashkiliy (ma'muriy boshqaruv, qog'ozbozlik, yomon reklama) omillarni ko'rsatish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, EIHlar XX asrning ikkinchi yarmida iqtisodiyotda eng ko'zga ko'ringan institutsional innovatsiyalardan biri sifatida qayd etilgan. O'zining jozibadorligi bilan ajralib turuvchi bu hududlarni tashkil etish tajribasini dunyo mamlakatlari misolida ko'rib chiqish va o'rganish mustaqil respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar uchun foydalidir.

1.2. Erkin iqtisodiy iqtisodiy zonlarni tashkil etish huquqiy asoslari

Hozirgi kunda jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarish uchun xorijiy investitsiyalarni birinchi galda, to'g'ridan tog'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda esa erkin iqtisodiy zonalar muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday erkin iqtisodiy zonalar mintaqani ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini jalb etish orqali uning sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy sohani rivojlantirish barobarida, zamonaviy bozor infratuzilmalarini tashkil etishga imkoniyat yaratadi. Hozirgi kunda xalqaro xo'jalik faoliyatida erkin iqtisodiy zonalarining 30 dan ortiq turi mavjud. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar bir qator huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 1998-yil 30 aprelda qabul qilingan "Chet el investitsiyalari",

“Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to’g’risida”gi va boshqa bir qator hujjatlar bilan tartibga solinadi.

EIZ to’g’risidagi qonunning 1- moddasiga ko’ra “Erkin iqtisodiy zona — mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan va aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquq tartiboti bo’lgan alohida maxsus ajratilgan hududdir. ”Erkin iqtisodiy zona hududida yuridik shaxslar va fuqarolar (jismoniy shaxslar) xo’jalik, moliyaviy va boshqa moliyaviy faoliyatning istagan turlari bilan shug’ullanishiga yo’l qo’yiladi. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida man etilgan faoliyat turlari bundan mustasno¹⁰.

Garchi siyosat kontseptsiyasi va vositasi sifatida erkin iqtisodiy zonalar uzoq vaqt davomida Hindiston yoki Xitoy kabi mamlakatlarda eng aniq namunalar sifatida sinovdan o’tgan bo’lsa-da, shuni eslatib o’tishimiz kerakki, bu kabi siyosat rivojlanayotgan va sanoatlashgan mamlakatlarda bir xil yoki muqobil siyosat maqsadlarini amalga oshirish uchun ishlatiladigan turli darajalarda yoki modifikatsiyalarda bo’lgan.¹¹

Mamlakatimizda mavjud Navoiy, Jizzax va Angren erkin iqtisodiy zonalarini amaliyotga tadbiq qilinishiga qarab turli vaqtlarga bo’linadi. Bunda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrda “Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy zona tashkil qilish to’g’risida”gi farmoniga asosan, “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi tashkil etildi. Angren erkin iqtisodiy zonasi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 apreldagi PF-4436-son Farmoniga asosan joriy etildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Jizzax erkin iqtisodiy zonasini barpo etish to’g’risida 2013 yil 18 martdagi PF-4516-son Farmonini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan.


¹⁰ 1996 yilning 25 aprelda mamlakat parlamenti O’zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to’g’risida" qonuni

¹¹ <https://www.scopus.com> Frantisek Liptak, Slavka Klasova, Viliam Kovac. Special Economic Zone Constitution According to Cluster Analysis. Procedia Economics and Finance. Vol. 27, 2015, Pages 186-193.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan 2009 yil 26 mayda qabul qilinib, yuqori palata – Senat tomonidan joriy yilning 28 avgustida ma’qullangan hamda 24 sentabr kuni matbuotda rasman kuchga kirgan “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni esa amaldagi qonunning erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish tartibi, ularning turlari, mazkur zonalar ishtirokchilariga qo‘shimcha imtiyoz va preferensiyalar berish mexanizmi, bunday hududda amalga oshiriladigan faoliyat turlari, erkin iqtisodiy zonalarining muvofiqlashtiruvchi va operativ boshqaruv organlarini shakllantirish tartibi hamda ularning vakolatlari, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi erkin iqtisodiy zona subyektlarini ro‘yxatga olish tartibi bilan bog‘liq normalarni yuqorida nomi zikr etilgan Farmon talablariga muvofiqlashtirishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ochilgan Navoiy, Angren, Jizzax va ochilayotgan yangi 4 ta erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etish huquqiy asoslari yaratilgan. Erkin iqtisodiy zonalar hududida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining asosiy yo‘nalishlari zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar va modullar, innovasiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng miqyosda ishlab chiqarish maqsadida tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi erkin iqtisodiy zonalar faoliyat ko‘rsatish muddati 30 yilni tashkil etadi, bu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkin. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati davomida uning hududida alohida bojxona, valyuta va soliq rejimlari, O‘zbekiston Respublikasi norezident fuqarolarining uning hududiga kirish, hududida bo‘lish va chiqib ketishning, shuningdek, ular tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar olishning soddalashtirilgan tartibi joriy etildi.



1.4-rasm. Investitsiyalarni jalb qilishda EIZlarda imtiyozlarni tabaqalashtirilgan holda qo'llash¹²

Bundan tashqari alohida huquqiy tartib, shu jumladan, soliq, valyuta va bojxona tartibi faqat EIZ hududida faoliyat ko'rsatayotgan va EIZ direksiyasi tomonidan ro'yhatga olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun amal qiladi.

Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilgan barcha hudud EIZ faoliyat ko'rsatadigan butun davr mobaynida foydalanish va boshqarish uchun Ma'muriy kengashga beriladi.

Erkin iqtisodiy zonalar direksiyasi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga EIZ hududida yer o'chastkalarini subijaraga topshirish, o'z huquq va majburiyatlarini ijara shartnomasi bo'yicha boshqa shaxsga berish, ijara huquqini garovga qo'yish, ularni ulush sifatida ustav kapitaliga qo'shish huquqisiz ijaraga beradi. EIZ lar hududida yer uchastkalarini sotish va boshqacha tarzda o'zgaga berish taqiqlanadi.

¹² Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Учеб. Пособие для ВУЗов Москва: «Юнити – Дана», 2005. С5.

EIZ larda ro'yhatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar ularga kiritilgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar quyidagicha bo'lgan taqdirda yer solig'i, mol-mulk solig'i, daromad solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliq to'lovi (kichik korxonalar uchun) Respublika yo'l jamg'armasi va Budjetdan tashqari umumta'li maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy to'lovlardan ozod etilgan.

- 3 million yevrodan 10 million yevrogacha -7 yilga;
- 10 million yevrodan 30 million yevrogacha -10 yilga. Keyingi 5-yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi hajmi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida belgilangan.
- 30 million yevrodan ortiq bo'lganda-15 yilga. Keyingi 10 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi hajmi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida belgilanadi.

Imtiyozlar berish davom etmoqda, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda PQ-2099-sonli Qaroriga asosan Navoiy shahridagi Intermadal xalqaro logistik markazida faoliyat ko'rsatayotgan "Karean eyr" aviakompaniyasi O'zbekistonga import qilinadigan tovarlar va jihozlar bo'yicha boj to'lovidan 2019 yil 1 yanvarigacha ozod qilinadi. Shuningdek bu aviakompaniyani O'zbekiston Respublikasi hududida olgan daromadi foyda solig'idan ozod qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Navoiy erkin iqtisodiy zonasida alohida valyuta rejimi faoliyati tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 2013 yil 25-dekabrda 341-sonli Qarorini qabul qilishi bilan "Navoiy" erkin iqtisodiy industrial zonasida qatnashchilarga quyidagilar ruxsat berilgan:

- ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar va kontraktlar bo'yicha hisob-kitob va to'lovlarni erkin iqtisodiy hududlarni xorijiy valyutaga amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi Rezidentlari bo'lgan boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan etkazib berilgan tovarlar, ishlar va xizmatlarning haqini erkin almashtiriladigan valyutada to'lash;

- eksport va import qilinadigan tovarlar uchun haq to'lash va hisob-kitob qilishning ular uchun qulay shartlari shakllaridan foydalanish. Bu qarorning qabul qilinishi "Navoiy" erkin iqtisodiy hududlarni qatnashchilari uchun qulayliklar tug'diradi va chet el investitsiyalarini yanada ko'proq jalb qilinishi.

Lekin Jizzax va Angren erkin iqtisodiy zonalarda boshqacharoq, bunda quyidagicha imtiyozlar berilgan va kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab 3 yildan 7 yilgacha muddatga beriladi, shu jumladan ekvivalentda:

- 300 ming AQSH dollaridan 3-million AQSH dollarigacha bo'lganda-3 yil muddatga;

- 3 million AQSH dollaridan ortiq 10 million AQSH dollarigacha bo'lganda-5 yil muddatga;

- 10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda-7yil muddatga beriladi.

Mamlakatimizda xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilishning qonuniy mexanizmlarini joriy etish, ularga yurtimizda erkin faoliyat yuritishlari uchun qulay imtiyoz va preferensiyalar berish, umuman, investitsiyaviy muhitni yanada yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qabul qilingan bir qator qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, investorlar huquqlarini muhofaza qilishni kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-4609-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmon bilan 2014-2015 yillarda Investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish samaradorligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi.

Dastur quyidagi 6 yoʻnalishda 46 ta chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- tadbirkorlik sub'yektlari va investorlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni yanada takomillashtirish va erkinlashtirish;

- davlat va mahalliy boshqaruv organlarining faoliyatining tadbirkorlik sub'yektlari bilan oʻzaro munosbatlaridagi samaradorligini oshirish va oshkoraligini ta'minlash;

- tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini qoʻllab-quvvatlash va muvofiqlashtirishning institutsional tizimini yanada takomillashtirish;

- tadbirkorlik sub'yektlarini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, bank va moliyaviy infratuzilma sifatini oshirish, tadbirkorlik sub'yektlariga koʻrsatiladigan xizmatlar doirasini kengaytirish;

- foliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va soddalashtirish, sifatni boshqarish standartlarini joriy etish;

- korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish va xususiy mulkdorlar rolini oshirish.

Chora-tadbirlar Dasturiga kiritilgan tadbirlarning amalga oshirilishi ustidan Vazirlar Mahkamasi tizimli nazorat oʻrnatadi, shu jumladan ularni amalda joriy etishning natijadorligi toʻgʻrisida tadbirkorlik sub'yektlari oʻrtasida muntazam soʻrovlar oʻtkazib boradi.

Adliya vazirligiga xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni huquqiy himoyalash boʻyicha ularga berilgan afzalliklarni tizimli ravishda monitoring qilib boriladi. Shu kunga qadar hududiy Adliyalardan tomonidan monitoring ishlari olib borilmoqda.

Qayd etish joizki, mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish boʻyicha qonun yoʻli bilan keng koʻlamdagi imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi belgilandi.

Shunday tartib belgilanganki, unga koʻra EIZ da roʻyxatga olingan xoʻjalik yurituvchi sub'yektlar EIZ faoliyat koʻrsatadigan butun muddatga eksportga

yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish maqsadida mamlakatga olib kelinayotgan asbob-uskunalar, shuningdek, xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'implardan tashqari) ozod qilingan.

O'zbekistonning ichki bozorlarida sotish uchun mo'ljallangan mahsulotni ishlab chiqarish maqsadida mamlakatga olib kiriladigan xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar uchun bojxona to'lovlari, agar qonun hujjatlarida boshqa imtiyozli tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, belgilangan stavkalarining 50 foizi miqorida (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'implardan tashqari) undiriladi, bunda ularni to'lash muddati 180 kungacha kechiktirilishi mumkin.

Bu berilgan imtiyozlardan foydalanilgan holda EIZ lar hududiga olib kirilgan asbob-uskunalar, xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar sotilgan yoki bepul berilgan taqdirda, bojxona to'lovlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda budjetga to'liq undiriladi.

EIZlarda ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilar ahvolini yomonlashtiruvchi hujjatlari tatbiq etilmasligi belgilab qo'yilgan, lekin aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarning soliqqa tortilishini tartibga soluvchi hujjatlar bundan mustasno deb qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 12 yanvarda «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

Farmonga ko'ra, tashqi bozorlarda talab katta bo'lgan, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan mineral-xomashyo va qishloq xo'jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni yaratish, shuningdek, Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Xorazm viloyatlarining ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o'rinlari tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirish maqsadida Samarqand viloyati Urgut tumanida – «Urgut», Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida – «G'ijduvon», Farg'ona viloyati

Qo'qon shahrida – «Qo'qon», Xorazm viloyati Hazorasp tumanida – «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini (keyingi o'rinlarda «Urgut» EIZ, «G'ijduvon» EIZ, «Qo'qon» EIZ va «Hazorasp» EIZ deb ataladi) tashkil etish ko'zda tutilgan. Garchi siyosat kontseptsiyasi va vositasi sifatida erkin iqtisodiy zonalar uzoq vaqt davomida Hindiston yoki Xitoy kabi mamlakatlarda eng aniq namunalar sifatida sinovdan o'tgan bo'lsa-da, shuni eslatib o'tishimiz kerakki, bu kabi siyosat rivojlanayotgan va sanoatlashgan mamlakatlarda bir xil yoki muqobil siyosat maqsadlarini amalga oshirish uchun ishlatiladigan turli darajalarda yoki modifikatsiyalarda bo'lgan.¹³

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, «O'zkommunxizmat» agentligi, «O'zbekenergo» AJ, «O'ztransgaz» AK, «O'zavtoyo'l» DAK hamda respublika va hududiy darajadagi muhandislik-kommunikatsiya xizmatlari ko'rsatuvchilar erkin iqtisodiy zonalarining qatnashchilari – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kommunikatsiyalarga, ularni ishlab chiqarish maydonchalariga o'z vaqtida tutashtirgan holda, kafolatli ulanishini ta'minlaydilar.

Tashqi bozorlarda talab katta bo'lgan va importning o'rnini bosuvchi, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investorlarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarini jalb etish;

- Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Xorazm viloyatlarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatlaridan kompleks hamda samarali foydalanishni ta'minlash;

- meva-sabzavot va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, to'qimachilik, gilam to'qish, poyabzal va charm-galantereya, ekologik jihatdan xavfsiz kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa yo'nalishlarda yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish;

¹³ <https://www.scopus.com> Frantisek Liptak, Slavka Klasova, Viliam Kovac. Special Economic Zone Constitution According to Cluster Analysis. Procedia Economics and Finance. Vol. 27, 2015, Pages 186-193.

- mahalliy xomashyo va materiallar negizida mustahkam kooperatsiya aloqalarini o'rnatish hamda erkin iqtisodiy zonalar korxonalari o'rtasida va umuman respublikada sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni standartlashtirish, sertifikatlashtirish va markirovka qilish bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq ilmiy-ishlab chiqarish markazlari tashkil etish va ularning qarorlari xalqaro darajada e'tirof etilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish «Urgut» EIZ, «G'ijduvon» EIZ, «Qo'qon» EIZ va «Hazorasp» EIZning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida investitsion qulay muhiti, xorijiy sarmoyadorlar uchun Respublikada siyosiy va iqtisodiy barqarorlik saqlanayotgan huquqiy kafolatlar va imtiyozlarning keng tizimlari yaratilgan. Bundan tashqari, xorijiy sarmoyalari bo'lgan korxonalarni rag'batlantirishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqilgan:

- O'zbekiston Respublikasi davlat sarmoyalar dasturiga kiradigan loyihalarga umumiy chora-tadbirlar imtiyozlar;

- xususiylashtirish jarayonida xorijiy sarmoyalar ishtirokini rahbatlantirish;

- xalq ise'molidagi texnik qayta qurollantirish va mahsulotlarni ishlab chiqishni rahbatlantirish.

Sarmoyalarning qulay "Chet el investorlar huquqlarini himoya qilish va ularga kafolat berish to'g'risida"gi, "Chet el investorlar tug'risida"gi, "Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarga beriladigan qo'shimcha rahbatlantirish omillari va imtiyozlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qatorida asoslangan. Shuni aytish kerakki, "Xorijiy sarmoyalarga kafolat berish" Qonuni hujjatlari investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, unda chet ellik investorlarga nisbatan investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun hujjatlari investitsiyalash paytidan boshlab o'n yil mobaynida qo'llaniladi.

Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan korxonalar, banklar, trastlar, kartellar, uyushmalar va boshqa korxonalarga ulush qo'shib qatnashish;

- chet ellik investorlarga to'liq qarashli bo'lgan korxonalarni barpo etish;

- O'zbekiston Respublikasi yoki O'zbekiston hukumati korxonalari tomonidan chiqarilayotgan aktsiyalar obligatsiyalar, aktsiya sertifikatlari va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish;

- turar joy binolariga ular joylashgan er uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek yerga egalik qilish va undan foydalanish hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini sotib olish.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan korxonalarning soliq imtiyozlariga iqtisodiyot tarmoqlarida to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan korxonalar 2005 yil 1 iyuldan boshlab asosiy faoliyat bo'yicha daromad (foyda) solig'i, mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, ekologiya solig'i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashdan ozod etiladilar. Ular quyidagi holda bo'ladi:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 mln AQSh dollarigacha - 3 yil muddatga;

- 3 mln AQSh dollaridan oshib 10 mln AQSh dollarigacha - 5 yil muddatga;

- 10 mln AQSh dollaridan oshganda - 7 yil muddatga;

- yuqorida ko'rsatilgan soliq chegirmalari quyidagi sharoitlarda qo'llaniladi:

- korxonalarni ish kuchi ko'p bo'lgan mintaqalarda - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, shuningdek Navoiy, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida joylashtirish;

- xorijiy investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarning O'zbekiston Respublikasi kafolatini taqdim etmasdan amalga oshirilishi;

- korxonaning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi 50 foizdan kam bo'lmasligi kerak;

- to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin kiritish;

- xorijiy investitsiyalarni erkin almashtiriladigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna ko'rinishida qo'yish.

Qayta yaratilgan korxonalar ro'yxatdan o'tgan vaqtdan boshlab mol-mulkiga soliq to'lashdan ozod etiladi:

- agar korxona o'z mahsulotining (ishi, xizmati) umumiy daromad xajmidan 30 foizini eksport qilsa-mol-mulk solig'i 50 foizga kamayadi;

- agar korxona o'z mahsulotining (ishi, xizmati) umumiy daromad hajmidan o'z besh foizdan o'ttiz foizgacha eksport qilsa-mol-mulk solig'i o'ttiz foizga kamayadi.

Bugungi kunda erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud:

- ulush qo'shib qatnashishi orqali qo'shma korxonalarni tashkil etish;
- 100 % mol-mulk xorijiy investorga tegishli bo'lgan xorijiy korxonalarni tashkil etish;

- yirik xorijiy kompaniya va firmalarning sho'ba korxonalari va filiallarini tashkil etish;

- konsessiya va lizing shartnomalari tuzish;
- tenderlar e'lon qilish;
- erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish;
- moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish;
- tashqi savdoga ko'mak va O'zbekistonga investitsiyalar jalb qilish loyihasi.

Tashqi savdo va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish davlatimiz iqtisodiyotining o'sishida va rivojlanishida asosiy yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi. Bular mamlakatni jahon iqtisodiga bog'lanishiga, ixtisoslashishiga va ilg'or texnologiyalarga e'rishishiga yordam beradi.

1.3. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda xorij tajribasi

Rivojlangan davlatlarda tashkil etilgan EIZ mamlakatning xo'jaligiga, eng avvalo, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga va tovar almashinuvi o'sishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, EIZlar AQSH iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ularni tashkil etishdan asosiy maqsad tashqi iqtisodiy va umumxo'jalik masalalarini yechish hisoblanadi. Bu orqali hududlarga investitsiyalar va yangi texnologiyalar kiritish, boshqaruv va marketing tajribalarini jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

AQSHda 240 dan ortiq EIZ mavjud¹⁴, ular butun davlat hududini qamrab olgan. Bu hududlarda 350 mingdan ortiq odam ish bilan band¹⁵, 2016 yilda 170 ta EIZlarda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar soni 3000 dan ko'proq. Ushbu firmalar eksport qilgan tovarlar qiymati esa, 40 mlrd dollarga teng hamda ular AQSH fuqarolariga 374559 ishchi o'rinlarni yaratdi¹⁶. EIZlarga olib kirilayotgan va qayta ishlanayotgan tovarlarning umumiy qiymati 200 mlrd dollardan oshiq. Aksariyat EIZlarning xo'jalik faoliyati asosan avtomobillar ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish va ularni yig'ishga ixtisoslashgan. Shuningdek, AQSHdagi EIZlar mahalliy va xorijiy ashyolar asosida boshqa tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish hisobiga kengayib bormoqda.

Tashqi savdo hududlari (TSH) orqali mamlakatning 2 foiz importi va 1,5 foiz eksporti amalga oshiriladi¹⁷. Ushbu hududlarning ichki bozor ehtiyojlarini qondirishdagi roli ortib bormoqda, 90-yillar boshlarida ularda ishlab chiqarilgan


¹⁴ Неучева М.Ю. Экономическая глобализация и проблемы национальной и международной безопасности. Проблемы современной экономики, №3(35) 2010. www.m-economy.ru

¹⁵ www.intervuz.ru/lecture/free_economic_zones.html

¹⁶ Приходько С.В. Воловик Н.П., Особы экономические зоны Москва ИЭПП, 2007.С.27.

¹⁷ Зубченко Л.А. Иностранные инвестиции . Москва «Книгодел» 2006. С.64.

mahsulotlarning 88 foizi AQSHning ichki bozorida o'z xaridorini topgan¹⁸. TSH milliy ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, mamalakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga o'z hissasini qo'shmoqda. Hududlarda aholining bandlik darajasini oshirishga, ichki va tashqi investitsiyalar kiritilish hajmining oshishiga va asosan ichki bozor ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari TSH faoliyati AQSH avtomobil sanoatining raqobatbardoshligi ortishiga ko'kaklashmoqda.



1.5-rasm. AQSHda faoliyat ko'rsatayotgan EIZlar turlari¹⁹

¹⁸ Шарапов С.А. Свободные экономические зоны. Москва: «Юнити – Дана», 2005.С.53.

¹⁹ Шарапов С.А. Свободные экономические зоны. Москва: «Юнити – Дана», 2005.С.53.

Hozirgi kunda AQSHda uch turdagi EIZlar, ya'ni tashqi savdo, tadbirkorlik va texnologiyalarni joriy etish (texnopark) hududlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha:

AQSHda TSH amaldagi qonunchilikka ko'ra, ikki turdagi hududlarga bo'linadi: umumiy vazifali va maxsus vazifali hududlar (subhududlar). Umumiy vazifali hududlar AQSH bojxonasi vakolatidan tashqari faoliyat ko'rsatadi. Ular, odatda port yoki aeroportlar atrofida tashkil qilinadi. Asosiy faoliyat tovarni saqlash, turlarga ajratish, o'rash va qo'shimcha qayta ishlashsiz jo'natishdan iborat. Ba'zi hollarda eksport qilish maqsadida xorijiy tovarlarni biroz qayta ishlashga yo'l qo'yiladi. Shu nuqtai nazardan, funksional maqsadlariga ko'ra, ular erkin bojxona hududlarini o'zida aks ettiradi. Ko'pincha umumiy vazifali hududlar keyinchalik maxsus hudud (subhudud) yaratish uchun tashkil qilinadi.

Umumiy vazifali hududlar AQSH Tashqi savdo bo'yicha Qo'mitasi tomonidan shtatlar hukumati qoshidagi turli tashkilotlarga, masalan port, aeroport boshqaruviga, ishlab chiqarish bo'yicha agentliklarga berilgan ruxsatnoma asosida yaratiladi.

Tabiiyki, TSH o'zi joylashgan shtatning umumiy rivojlanishiga, balandlik va savdo hajmining oshishiga hissa qo'shadi. Bu tashqi savdo hududi tashkil etishning muhim shartlaridan biri. Odatda, bu hududlarni tegishli tashkilotlar bilan tuzilgan shartnoma asosida xususiy kompaniyalar boshqaradi.

Dastlabki umumiy vazifali savdo hududlari AQSHda 1930 yillarda paydo bo'lgan va New York, Chikago, San-Fransisko kabi shaharlarning portlarida joylashgan. Masalan, New Yorkda bunday hudud 1936 yil 30 yanvarda mahalliy hukumat tashabbusi bilan yaratilgan²⁰. 1950 yilda bunday hududlar Toledo (Ogayo shtati), Bey-Kaunti (Michigan shtati), Mayagues (Puerto-Riko shtati) va Gonoluluda (Gvayi shtati) paydo bo'lgan.

Umumiy vazifali TSHlarning aksariyati 1970-1980 yillarda tashkil etilgan. Bu davrda hududlar port va aeroportlar bilan chegaralanib qolmay, okeanga chiqish imkoniga ega bo'lmagan, ammo tashqi savdoda muhim rol o'ynaydigan

²⁰ Климовец О.В. Международный оффшорный бизнес. Ростов – на – Дону «Феникс», 2004. С. 45

shaharlarda ham tashkil etilgan. Buning sababi, AQSh Savdo hajmining darajasi keskin o'sishi, ichki bozorda chet el kompaniyalarining faollashuvi, turli eksport operatsiyalari miqdori va hajmining oshishidir. Bu yo'l bilan AQSHda yangi savdo infratuzilmasi tashkil etildi. 1970 yilda tashkil etilgan 52 ta hududdan 24 tasi okeanga chiqish imkoniga ega bo'lmagan shaharlarda joylashgan.

AQSH tashribasi ko'rsatishicha, yaratilgan bunday hududlarning aksariyati samarali ishlaydi. So'nggi 35 yil ichida bu hududlar soni oshib bormoqda. 1975 yildan 2017 yilgacha umumiy hududlar soni AQSHda 17 tadan 142 taga, maxsus hududlar (subhududlar) soni esa 2 tadan 271 taga yetdi.

Hozirda TSH AQSHning deyarli barcha hududlarida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ularning joylashuvini tahlil qilar ekanmiz, hududlarning ko'pchiligi dengiz va okean bo'ylarida joylashganligini yoki yirik sanoat kompleksiga ega, ammo okeanga chiqish imkoniga ega bo'lmagan shtatlarda tashkil etilganiga guvoh bo'lamiz. Birinchi guruhga mansub TSHlari dastlab Texas (26 ta), NewYork (13 ta), Florida (12 ta) va Kaliforniya (7 ta) da joylashgan. Ikkinchi guruh hududlariga esa Ogayo (8 ta), Indiana va Illinoys (6 tadan), Arizona va Michiga (5 tadan), Shimoliy Karolina(4 ta) shtatlarida yaqin yillar ichida tashkil etilgan TSHlari kiradi²¹.

AQSHda EIZlar keng tarqalishining asosiy sabablaridan biri mazkur hududda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va mahalliy kompaniyalarga berilgan imtiyozlardir. Imtiyozlar quyidagilardan iborat"

- AQSHning ichki boj va soliqlari, agar to'lanishi kerak bo'lsa, mahsulot tashqi savdo hududidan ichki iste'mol uchun bojxona vakolati mavjud hududga olib kiritilgandagina to'lanadi;
- Hudud ichida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarning xususiy mulki mahalliy va davlat soliqlaridan ozod etiladi;
- Hududdan uchinchi davlatlarga ekport qilinayotgan mahsulot bojxona bojlaridan, ichki soliqlaridan va kvotalashdan ozod etiladi;

²¹ Annual report of the Foreign - Trade Zone Board to the Congress of the U.S.2010.

- Tashqi savdo hududidan mahsulotlar eksport qilinganda, bojxona jarayoni yengillashiriladi;
- AQSH hududiga kiritilishi man qilingan mahsulot EIZlarga olib kirilmaydi. Ammo, bu mahsulotlar hududga olib kirilib, AQSH bojxonasi talablariga muvofiq qayta ishlanib, AQSH hududiga import qilishi mumkin;
- TSHda AQSH hududiga import qilishi jarayonida importer bojni mahsulot uchun yoki mahsulotda ishlatilgan xorijiy komponentlar uchun to'laydi. Bu bilan importer o'ziga maqbul bojni to'lashni tanlashi mumkin bo'ladi.

Subzonada asosiy faoliyat yurituvchilar – avtomobil yig'uvchi korxonalar (1990 yilning oxirida ularning soni 40 dan ortiq bo'lgan), ularga zonalarda amalga oshiriladigan barcha ishlarning 60 foizdan ortig'i to'g'ri keladi. Mahalliy tovarlar TSHga jami olib kirilgan tovarlarning 75 foizini tashkil etadi. Hozirgi kunda TSHlarida 3 mingga yaqin, asosan, amerika firmalari faoliyat yuritmoqda, jalb etilgan ishchilar soni esa 320 mingdan ortiq. 1992 yilda TSHlariga olib kelingan va u yerda qayta ishlangan tovarlarning umumiy qiymati 93,8 mlrd. Dollarni tashkil etdi (1970 yilda bu ko'rsatkich 102 mln.dollarga teng bo'lgan), shundan umumiy vazifali hududlarga-10,7 mlrd. Dollar., maxsus hududlarga 83,1 mlrd. Dollar mablag' to'g'ri kelgan. 2016 yili bu ko'rsatkich 254 mlrd. Dollar ni tashkil qilgan²².

Tadbirkorlik hududlari tashqi savdo bilan bevosita bog'liq bo'lmagan EIHlar toifasiga kiradi. Bu yerda erkin hududning boshlang'ich tushunchasi yo'qotiladi, chunki bojxona imtiyozlari ikkinchi darajali yoki umuman yo'q bo'lib qoladi, asosiy rolni esa turli soliq, moliyaviy va ma'muriy rag'batlantirishlar o'ynaydi.

AQSHda tadbirkorlik hududlari (TH) yuqori ishsizlik darajasiga ega shaharlarning iqtisodiy nuqtai nazaridan depressiv (qoloq) hududlarida, asosan shaharlarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarga ko'proq erkinlik va moliyaviy imtiyozlar berish orqali kichik va o'rta biznesni jonlantirishga qaratilgan mintaqaviy siyosatning neokonservativ variantining mahsuli sifatida vujudga

²² Климовец О.В. Международный оффшорный бизнес. Ростов – на – Дону «Феникс», 2004. С. 320

kelgan. TH maydoni 2,5-5 kv.km gacha bo'lgan hududlarni qamrab oladi²³, ayrim hollarda ularning maydoni 13 kv.km ni tashkil etadi, ularning muayyan chegarasi belgilanmagan, ular o'z hududida joylashgan kompaniyalarning maqomi bilan ajralib turadi.

Texnologik parklar (texnikani tatbiq etish hududlari) fan va ishlab chiqarishning integratsiya shakli, innovatsion faoliyat yuritish va yangi texnologiyalar yaratish bilan band bo'lgan venchurli (tavakkalchilik) firmalar tuzish joyi sifatida e'tirof etilgan. Odatda, ular istiqbolli ilmiy va texnologik yangiliklar va g'oyalar tadbiq etish bilan shug'ullanadigan venchur firmalariga imtiyozli shartlarda ijaraga berilgan hududiy guruhlangan ilmiy laboratoriya va ishlab chiqarish joylari sifatida ta'riflanadi.

AQSHda texnoparklarning ikki turi mavjud: jismoniy shaxslar va xususiy firmalar tashabbusi bilan tashkil etilgan texnoparklar hamda alohida shtatlar hukumatlarining ko'rsatmasi bilan tuzilgan texnoparklar. Ikkinchi turdagi parklar hozirda ham tuzilmoqda. Biroq, eng mashhur va samarali faoliyat yurituvchi texnoparklar birinchi turga mansub. Ular ichida eng mashhurlari – Santa-Klara shahridagi (Kaliforniya), Stenford universiteti yaqinida joylashgan “Silikon vodiysi” texnoparki; Massachuset texnologik instituti va Garvard universiteti yaqinida joylashgan “Boston yo'li-128” texnoparki; hamda uchta universitet Dyuk universiteti, Shimoliy Karolina park-uchburchagi” texnoparklaridir. Aytib o'tilgan uchta texnopark nafaqat AQSHning boshqa hududlarida, balki xorij davlatlarida ham bunday texnoparklarni tuzishda model sifatida qo'llanildi.

Garvard universiteti va Massachuset texnologik instituti rahbariyati professor va aspirantlarning sanoat kompaniyalari ilmiy-tekshirish bo'limlari va markazlaridagi ishtirokini rag'batlantirgan. Bundan tashqari, ushbu ikkita yirik oliy o'quv yurti xodimlari va bitiruvchilarni moliyalashtirish sanoat firmalari va xususiy xayriya jamg'armalari (Ford, aka-uka Rokfellerlar, Karnegi va boshqalar) tomonidan amalga oshirilgan. Texnopark shakllanish jarayoni 20 yildan ko'proq davom etdi.

²³ www.viperson.ru/data200704/prilogeniel.doc

Hozirda ilm-fan va ishlab chiqarishni birlashtirgan “Boston yo’li-128” texnoparki AQSHning yirik ilmiy-ishlab chiqarish markazlaridan biriga aylangan. Bu yerda 350 dan ortiq sanoat firmalari o’z faoliyatini amalga oshiradi, ularning uchdan biri – yirik Amerika TMK (transmilliy korporasiyalar) ning filiallaridir, shuningdek mingdan ortiq ilmiy-tekshirish laboratoriyalari va boshqa tashkilotlar faoliyat yuritadi. Texnoparkning asosiy ilmiy-tekshirish ishlari keyinchalik tovar mahsulotiga aylanadigan elektron, raketa – kosmik sanoati, genetik injeneriya rivojlanishi, yangi konstruksion materiallar yaratish bilan bog’liq. Shuningdek, mazkur hududda turli ijtimoiy tadqiqotlar ham olib boriladi. Bu yirik texnopark faoliyati AQSHning ilmiy-texnik potentsiali mustahkamlanishi, uning ilm – fanga xizmat qiluvchi turli xil mahsulotlar ishlab chiqarishi va eksport borasida yetakchilik qilishini ta’minlamoqda.

1990 yillarning boshlarida AQSHda 150 ta texnopark (dunyodagi texnoparklar umumiy sonining 30 foizi) mavjud edi²⁴. Ularni tashkil qilish va boshqarish jarayonlarining har biri alohida holda turlicha bo’lishi mumkin. Odatda, bu parklar universitet, mahalliy munisipalitet, aksiyadorlik jamiyati va birlashmalari ishtirokida moliyalashtiriladi. Ularning moliyaviy ta’minoti har xil manbalardan, jumladan, universitetlar, xayriya jamg’armalari, mahalliy munisipalitetlar, federal idoralar va vazirliklar, sanoat firmalari hamda texnoparklarning o’zlari tomonidan ta’sis etiladigan jamg’armalardan tashkil topadi. Mahsulot va texnologiyalarning yangi turlarini ishlab chiqaruvchi venchur kompaniyalar, alohida kashfiyotchi va olimlarga imtiyozli yordam berish – boshqaruv shakli va moliyalashtirish manbalari qandayligidan qat’iy nazar, barcha texnoparklarga xos. Bu yordam o’z ichiga ishlab chiqarish va idora joylari, laboratoriya uskunalarini ijaraga berishni, maslahat xizmatlari ko’rsatishni, individual kashfiyotlarning texnologiyalarini ekspertizasini amalga oshirishni, tuzilayotgan kompaniyaning biznes-rejasini tuzishni, kichik biznes bo’yicha ma’muriyatdan qarz olishda ko’maklashishni qamrab oladi. Texnopark tarkibiga kirmaydigan venchur firma esa qo’shimcha xizmatlarga yiliga o’rtacha 20 – 25 ming dollar sarf qiladi.

²⁴ Шарапов С.А. Свободные экономические зоны. Москва. «Юнити-Дана», 2005. С . 18

Texnopark boshqaruvi tomonidan uning tarkibidagi venchur firmalarga ilmiy tadqiqotlarning va ishlab chiqarishning yuqori texnologik darajada olib borilishi va park iqtisodligining universitet asosiy tadqiqotlari yo'nalishlariga muvofiq kelishi talabi qo'yiladi. Shuning uchun texnopark doirasida venchur firmalarning tadqiqotlari bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq ilmiy va ma'muriy faoliyatning barcha turlariga ruxsat etiladi. Texnoparklar faoliyatiga xos bo'lgan boshqa xususiyat, ularning sanoat kompaniyalari bilan hamkorligidir. Texnoparklarning AQSH iqtisodiyotida nechog'li ahamiyat kasb etishini yuqori texnologik industriyaning markazi bo'lmish "Silikon vodiysi"ning kopyuter va hisoblash texnikasi ishlab chiqarish sohasida butun dunyo ulushining beshdan bir qismini (ya'ni, 20%) ta'minlashi va u yerda 20 ming kishi ish bilan bandligi ham ko'rsatadi. Garchi siyosat kontseptsiyasi va vositasi sifatida erkin iqtisodiy zonalar uzoq vaqt davomida Hindiston yoki Xitoy kabi mamlakatlarda eng aniq namunalar sifatida sinovdan o'tgan bo'lsa-da, shuni eslatib o'tishimiz kerakki, bu kabi siyosat rivojlanayotgan va sanoatlashgan mamlakatlarda bir xil yoki muqobil siyosat maqsadlarini amalga oshirish uchun ishlatiladigan turli darajalarda yoki modifikatsiyalarda bo'lgan.²⁵

Germaniyada alohida rag'batlantirish tartibi, asosan, port-zona hududida tovarlarni qayta ishlash natijasida yuzaga keladigan bojxona to'lovlari, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bekor qilinishi orqali tashkil etiladi²⁶.

Italiyada EIZning bojlardan ozod etilgan omborlar shakli keng tarqalgan. Ularning soni 12 ta bo'lib jumladan Neapolda (4ta), Genuyada (2ta), Vari, Imperiya, Livorna, Palermo va Rimda joylashgan.

Ispaniyada 4 ta EIZ mavjud. 1929 yili ichki va tranzit savdoni rivojlantirish, tashqi savdo operatsiyalarni faollashtirish va eksportga yo'natirlgan sanoatni rivojlantirish uchun "Kadis" EIZ tuzilgan²⁷.

²⁵ Frantisek Liptak, Slavka Klasova, Viliam Kovac. Special Economic Zone Constitution According to Cluster Analysis. *Procedia Economics and Finance*. Vol. 27, 2015, Pages 186-193. (<https://www.scopus.com>), (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567115009880>).

²⁶ Причодько С.В., Воловик Н.П. Особые экономические зоны. Москва: ИЭПП, 2007. С. 23

²⁷ Сафин Т. Европейский опыт создания свободных экономических зон. // *Uzbekistan & Central Asia*. Ташкент: 2009. С. 36 - 38

EIZning Atlantika okeani qirg'og'ida joylashganligi, uning Amerika, ShimoliyAfrika, Atlantika sohili hamda O'rta yer dengizi atrofidagi Yevropa davlatlari bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlari rivojlanishini ra'minladi. "Kadis" hududidagi qirg'oq Ispaniyani barcha yirik savdo markazlari bilan bog'lovchi yuk va passajir tashuvchi, dengiz liniyalariga xizmat qiluvchi zamonaviy port qurilmalariga ega. "Kadis" IEZ maydoni 570ming m² ni tashkil etadi va perimetr bo'yicha EIZga qo'yiladigan talablarga muvofiq tuzilgan. Bu hududda xalqaro savdo markazi, ochiq va yopiq ombor va maydonchalar, sanoat korxonalari, port xizmatlari, konteyner-muzlatgichlar terminali joylashgan.

"Kadis" EIZ zamonaviy infratuzulma va ma'lumotlar bazasi, xavfsizlik xizmati, ichki aloqa tizimi, bojxona, bank va transport xizmatlariga ega. EIZ Yevropa Ittifoqi (EI) bojxona hududining qismi hisoblanadi, shuning uchun uchunchi davlatlar tovarlari uchun quyidagi bojxona va soliq imtiyozlari mavjud"

- Agar tovar EIZda bo'lsa, import bojlaridan ozod etish;
- Zona hududiga olib kelinayotgan tovarlarni maxsus soliqlardan ozod etish;
- QQSdan ozod etish va EIZga olib kirilayotgan tovarlar uchun va bu tovarlarni qayta ishlash bilan bog'liq xizmatlar uchun to'lovlarning qaytarilishi;
- EI savdo siyosati choralarini qo'llamaslik;
- Tovarning kelib chiqishi, miqdori, ishlab chiqilgan joyi va ishlatilishidan qat'iy nazar uni olib kirish va cheklanmagan muddat davomida EIZda saqlash imkoniyati.

"Kadis" EIZ muvaffaqiyatli rivojlanib, Ispaniyaning ichki va tashqi savdosi rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

I bob bo'yicha xulosa

Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishning asosiy maqsadi bu – investitsiyalarni jalb qilish, aholining bandligi darajasini oshirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar daromadlarining o'sishini ta'minlash, aholining turmush darajasini yaxshilash, ishlab chiqarishga progressiv texnologiyalarni olib kirish,

jahon andozalariga mos keluvchi tovarlarni ishlab chiqarishdir. Turli erkin iqtisodiy hududlarda imtiyoz va rag'batlantirishlar tizimi alohida jihatlari bilan farq qilishi mumkin, bunda imtiyozlar to'rtta asosiy guruhga ajratiladi: tashqi savdo imtiyozlari, soliq imtiyozlari, moliyaviy imtiyozlar, ma'muriy imtiyozlar.

Mazkur erkin iqtisodiy zonalarining barpo etilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ichki va tashqi bozorlarda yangi eksportga yo'nalitirilgan mahsulotlarni o'zlashtirishiga imkon berdi va investorlar faoliyatining yanada kengayishi uchun qo'shimcha shart-sharoit va qulayliklar yaratdi. Asosan, bular zamonaviy qurilish va jihozlash materiallari, iste'mol tovarlari, telekommunikatsiya, neftgaz texnologik uskunalari, kimyo, avtomobil va elektrotexnika sanoati hamda boshqa yuqori texnologik sanoat ishlab chiqarish yo'nalishlaridagi mahsulotlardir.

Xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotimizga jalb qilish va ularni hisoblashga doir xalqaro iqtisodiy tashkilotlar yondashuvlarni tahlil qilish va mamlakatimizda jahon tajribasi asosida investitsiya siyosatini rivojlantirish hozirda dolzarb ahamiyat aks etadi. O'zbekistonda xorijiy investirlar uchun qulay investitsiya muhiti, imtiyoz va proferensiyalar tizimi yaratilgan. Iqtisodiyotimizga jalb etilayotgan xorijiy sarmoyaning yildan – yilga oshib borayotganligi buning isbotidir. Shu bilan birga, ushbu erkin iqtisodiy zonalar joylashgan hududlarda mavjud bo'lgan xom-ashyo va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ko'lamini oshirishga, zamonaviy sanoat ishlab chiqarish quvvatlarining tashkil etilishi yangi ish o'rinlari barpo etilishiga, bandlik darajasining yuqori bo'lishiga va pirovordida aholi farovonligining oshishiga olib keladi.

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI TAHLILI

2.1. “NAVOIY”, “ANGREN”, “JIZZAX” erkin iqtisodiy zonalarini faoliyati tahlili

Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish ahamiyati shundan iboratki - mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hudud hisoblashimiz mumkin.

“Navoiy” EIZning aynan Navoiy viloyati hududida tashkil etishining bir qancha sabablari bor.

Jumladan, O'zbekistonni o'zining salohiyatli hamkori, deb tanlangan har bir xorijiy kompaniya, uning 5 ta yirik va nisbatan barqaror rivojlanayotgan jahon bozorlariga yaqinligini hisobga oladi. Bular MDH davlatlari, Markaziy va Sharqiy Yevropa, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlaridir.

Qo'shimcha tarzda Navoiy viloyatida turli xildagi tabiiy boyliklarining mavjudligi va xomashyolar manbalarining yaqinligi transport xarajatlarini kamaytiradi, u yerda ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxining pastroq bo'lishiga imkon beradi.

Yevroosiyo transport tizimidagi muhim ahamiyatga ega transport yo'li aynan O'zbekiston orqali o'tadi. “Navoiy” EIZ yaqinidan esa Yevropa va Xitoy bog'lovchi eng yaqin “E-40” avtomagistrali hamda Markaziy Osiyo, MDH Janubi-Sharqiy Osiyo, Yevropa, Yaqin Sharq va Fors ko'rfaziga chiquvchi temir yo'l o'tadi.

Xitoy – Yevropa yo'nalishi bo'yicha avtomobil transportida yuk tashish O'zbekiston orqali amalga oshirsa, Xitoy-Rossiya chegaralaridan o'tuvchi marshrutga nisbatan yo'l 1000 km ga qisqaradi va albatta, transport xarajatlari ham shunga muvofiq tarzda kamayadi. Konteyner poyezdi Toshkentdan Bandar-Abbas

portiga 7 sutkada, Toshkentdan Tehron orqali Istanbulga 10 kunda yetib boradi, bu yuklarni O'zbekistonni chetlab o'tgan yo'ldan emas, balki yaqinroq yo'ldan tashish, masofani ikki barobar qisqartirish imkonini beradi²⁸.

Navoiy hududi orqali temir yo'lining barcha asosiy trassalari o'tgan. U Janubda Eron va Turkiya portlariga, G'arb va Shimolda Qora dengiz va Boltiq dengizi portlariga chiqadi. Xitoy bilan Yevropani bog'lovchi eng qisqa temir yo'l marshruti ham aynan Navoiy orqali o'tadi. "G'uzor – Boysun – Qumqo'rg'on" temir yo'lining ishga tushirilishi bilan Afg'oniston, Pokiston va Hindistonga transit yuklarini tashish yo'li ancha qisqardi.

EIZ hududida 26 kmli avtomobil yo'li mavjud²⁹, ushbu yo'l orqali ishlab chiqarish ob'yektlariga kerakli bo'lgan asbob-uskunalarni, jihozlarni tashishga, qurilayotgan ob'yektlarga qurilish mollarini, ishlab chiqaruvchi sexlarga zarur xomashyo va materiallarni yetkazib berishda foydalanish mumkin.

2008 yilning noyabr oyida "O'zbekiston Havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasi Koreyaning "Korean Air" kompaniyasi bilan shartnoma imzoladi. Unga ko'ra, Navoiy xalqaro aeroporti bazasida "Navoiy" EIZ hududida "Korean Air" kompaniyasi bilan hamkorlikda MDH mamlakatlarida yagona transcontinental intermodal logistika markazi tashkil etildi. Bugungi kunda "Navoiy" aeroporti barcha zarur zamonaviy jihozlar, asbob-uskunalar bilan ta'minlangan xalqaro aeroport maqomiga ega. U barcha turdagi havo transportlarini, shu jumladan, dunyodagi eng yirik yuk tashuvchi hisoblangan Boing-747 va AH-124 samolyotlarini ham qabul qila oladi³⁰. "Navoiy" EIZdan 2000 km radiusda 11 ta mamlakat, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Hindiston va Xitoyning 40 dan ortiq yirik shaharlari joylashgan³¹. Havo transportidan foydalanib, yuklarni tashishda O'zbekiston orqali o'tadigan havo yo'laklaridan foydalanish – xarajatlarni va vaqtni sezilarni darajada tejash imkonini beradi. Janubiy – Sharqiy Osiyodan Yevropaga Navoiy orqali uchilsa, Dubay orqali

²⁸ www.navoi-fiez.uz sayti ma'lumotlari

²⁹ www.nfieз.uz sayti ma'lumotlari

³⁰ www.regnum.ru sayti ma'lumotlari

³¹ www.nfieз.com sayti ma'lumotlari

uchilganiga nisbatan masofa 1000 km.ga qisqaradi. Shunda parvoz 1,5 soatgina davom etib, har bir avialaynerdan 15 tonna yoqilg'i iqtisod qilinadi.

EIZ rezidentlari yer, mol-mulk, foyda, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqlari, yagona soliq to'lovi (kichik korxonalar uchun), Yo'l jamg'armasi va Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari umumiy ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash, jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalardan belgilangan tartibda ozod etilgan. Ya'ni, investitsiyalar hajmi 3 milliondan 10 million yevrogacha bo'lsa, 7 yilga, 10 dan 30 million yevrogacha 10 yilga, foyda solig'i va YaST stavkalari 5 yil muddatga 50 foizga, 30 million yevrodan ortiq bo'lsa, 15 yilga, foyda va YaST stavkalari 10 yilga 50 foizga pasaytiriladi³².

Bu imtiyozni qo'llash Navoiy EIZ hududida alohida soliq rejimini ta'minlash tartibi to'g'risidagi Nizom bilan tartibga solinadi.

Imtiyozning amal qilish muddati yuridik shaxs EIZ qatnashchilari reestriga kiritilgan sanadan boshlab hisoblanadi. U imtiyozni qo'llash huquqiga ega bo'lgan oydan boshlab amal qilish muddati tugagunga qadar foydalanadi. Imtiyozni qo'llash huquqi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning belgilangan hajmiga erishilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

EIZda faoliyatni amalga oshirish uchun 19 ta korxona ro'yxatdan o'tgan. Shundan 16 tasi qo'shma, 2 tasi sho'ba korxonasidir. "Olive Telekom" qo'shma korxonasi, "Uzkor LIGHTING" MChJ QK Navoiy shahridan, "Hansang-Pharm" MChJ QK esa Toshkent shahridan ro'yxatdan o'tgan. Bugungi kunda bu yerda 12 ta korxona faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 23 apreldagi "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida alohida bojxona rejimi hamda alohida soliq rejimini ta'minlash tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi qarori talablariga asosan 9 ta korxona yetti yilgacha muddatda imtiyozga

³² www.uza.uz sayti ma'lumotlari

ega bo'lib, o'tgan yilning to'qqiz oyida jami 3 milliard 184.5 million so'mlik soliq imtiyozlaridan foydalandi.

2.1-jadval

Navoiy viloyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari³³

№	Ko'rsatkichlar (mlrd.so'm)	Yillar				
		2013	2014	2015	2016	2017
1	Yalpi hududiy mahsulotlar	5603,5	6587,3	7575,8	8981,4	10541,8
2	Sanoat mahsulotlari	5394,3	6656,9	8238,9	9286,9	10682,4
3	Iste'mol tovarlari	412,0	755,0	1112,2	1768,6	2143,2
4	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	1332,4	1780,4	1804,1	2081,9	2330,2
5	Asosiy kapitalga investitsiyalar	1559,7	1622,7	1653,0	1690,7	2839,1
6	Ish bilan band bo'lganlar soni (ming kishi)	418,5	419,6	420,6	421,2	421,8
7	Erkin iqtisodiy zona ichida ochilgan korxonalar soni	12	14	17	21	24

1-jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha, viloyatda yaratilgan YaHM 2017 yilda 10541,8 mlrd.so'mni tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 5,9 foizga ko'paydi. Asosiy kapitalga investitsiyalar ko'rsatkichi esa 2017 yilda 2839,1 mlrd.so'm bu 2015 yilga nisbatan 46,7 foizga oshgan. Ish bilan bandlik ko'rsatkichi ham o'sish tendensiyasiga ega. Bundan tashqari Navoiy erkin iqtisodiy industrial zonasi hududida ham yangi korxonalar soni nisbatan oshganligini ko'rish mumkin.

Lekin o'tgan 8-yil mobaynida bu yerda atigi 24 ta loyiha amalga oshirilganligi, ularda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi juda past va atigi 900 ta odam ishga joylashtirilganligini ko'rish mumkin. O'tgan yili esa mahsulot ishlab chiqarish hajmi 24 foizga pasaygan.

Jumladan, "O'zbektelecom" AK va Singapurning "Servetechno Pte. Ltd" kompaniyalari bilan hamkorlikda tuzilgan "Telecom Innovation" qo'shma korxonasi tashkil etilgan. Ushbu loyihaning qiymati 1,6 mln.AQSH dollarini tshkil etadi. U yerda raqamli televideniya uchun yillik quvvati 50 ming dona bo'lgan

³³ www.navoi.uz sayti ma'lumotlari

tyunerlar ishlab chiqariladi. Ayni vaqtda ushbu korxona 30 dan ziyod yosh kollej bitiruvchilar bilan faoliyat yuritmoqda³⁴.

“O‘zbekneftgaz” kompaniyasi tomonidan politilen va polipropilen quvurlarni ishlab chiqaruvchi 2 ta zavod mavjid bo‘lib, u “Polietilen quvurlari” ishlab chiqariladi. Loyihaning umumiy qiymati 7,2mln.dollar ni tashkil etadi. Korxona ishlab chiqarish hajmi ya’ni uning yillik eksport hajmi 6 mln.AQSH dollaridan ko‘proqni tashkil etadi. Bu korxonada hozirgi kunda 80 ga yaqin ishchi faoliyat yuritadi. Ikkinchi zavod “Polipropilen quvurlari” zavodi bo‘lib, ushbu loyihaning qiymati 5,2 mln. AQSH dollariga teng, tayyor mahsulotning 50 foizi eksport qilish uchun mo‘ljallangan. Zavod 50 dan ortiq yosh mutaxassislarni ish bilan ta’minlagan³⁵.

“UzEraeCabele” qo‘shma korxona “O‘zavtosanoat” AK va Erae cs Ltd” (Korea Respublikasi) bilan birgalikda tuzilgan. Loyihaning umumiy qiymati 13 mln. AQSH dollarini tashkil qiladi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning asosiy iste’molchisi “GM Uzbekistan” uchun avtomobil sim o‘ramlarini ishlab chiqaruvchi “O‘zkodji” qo‘shma korxonasidir. Bundan tashqari, ishlab chiqarilgan mahsulotning 20 foizi “General Motors” ning xorijiy korxonalariga eksport qilinishiga mo‘ljallangan³⁶.

“AgroFresh” korxonasi “Navoiy” erkin industrial zonasida birinchilardan bo‘lib ochilgan qo‘shma korxonalar sirasiga kiradi. Ushbu yangi korxona “Markazsanoateksport” GAVK va Birlashgan Arab Amirliklarining “Kefayat General Trading Co” kompaniyasi hamkorligida tashkil etildi. Qo‘shma korxona 3000 tonna meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash imkonini beradigan, harorat gaz orqali boshqariladigan, Italiyaning muzlatish uskunalari bilan jihozlangan. Loyihaning umumiy qiymati 5,03 million dollarni tashkil etadi. Bu yerda yigirmadan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi. Korxona mahsulotining qariyb 50 foizi eksportga chiqariladi.

³⁴ www.jahonnews.uz sayti ma’lumotlari

³⁵ www.uza.uz sayti ma’lumotlari

³⁶ www.agmk.uz/index.php sayti ma’lumotlari

“HPC SYSTEMS” MChJ - “Navoiy erkin iqtisodiy zonasida 400 kV gacha bo’lgan tikilgan polietillen izolyatsiyali kuchlanish kabellarini ishlab chiqarishni tashkil etish to’g’risida”gi investitsion loyihaga asosan 2012 yilda «HPC Systems» MChJ qo’shma korxonasi tashkil etildi. Qo’shma korxonaning Ustav fondi 18,8 mln. doll., tashkil etib, OKMKning ulushi(50%), “O’zkabel” AJ qo’shma korxonasi(25%) va “Gulf Cable Trading Company” (XHR)(25 %)dan iborat bo’ldi.

«HPC Systems» MChJ O’zbekiston Respublikasi, Navoiy shahri, “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasida joylashgan. Korxonaning qulay joyda joylashganligi, rivojlangan transport infrastrukturasini, “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasidagi soliq va bojxona rejimlari kabel mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish uchun qulay imkoniyat, shart-sharoitlarni ta’minlaydi.

«HPC Systems» MChJ - Osiyo mintaqasi va MDHdagi eng zamonaviy kabel zavodi hisoblanadi. Korxona eng zamonaviy yevropaning jumladan: «Maillefer Extrusion Oy» (Finlyandiya), «Pourtier» (Frantsiya), «Sikora» (Germaniya), «Elof» (Shvetsiya), «Kabmak» (Turkiya) va boshqa davlatlarning texnologik va sinov uskunalari bilan jihozlangan. Sinov uskunalarining o’zi 1,5 mln. doll.ni tashkil etadi, umuman olganda uskuna, jihozlar uchun investitsiyalar 10,5 mln.dollardan oshdi, qurilish esa 32 mlrd. so’mni tashkil qildi.

“Hayat Power Cable Systems” Qo’shma korxonasi MChJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan kabellar va simlar jahonning eng ilg’or analoglariga muvofiq bo’lgan holda, avallari respublikamizda ishlab chiqarilmagan, masalan 110 kV kuchlanishlar uchun mis kabellari (kabellar Niderlandiya qirolligi davlatida sertifikatlashtirish sinovlaridan o’tkazilishga tayyorlanmoqda), uch tomirli ijrodagi misli yuqori kuchlanishli zirhlangan kabellar (kabellar Turkmanistonga eksport qilingan), yonmaydigan ijrodagi 630 kV.mm gacha bo’lgan yuqori voltli kuchlanish mis kabellari (Toshkent IES modernizatsiyalash ob’ektlariga eksport sarnomalari asosida yetkazib berildi).

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport hajmi 2016 yilda 12,2 mlrd.so’m (ekv. da 4,76 mln. doll.) ni tashkil qildi. 2017 yilning 6 oyi davomida 37,8 mlrd.

so'mlik(ekv.da 12,9 mln.doll) mahsulot ishlab chiqarildi, bunda eksport hajmi 9,6 mln. doll. , eksport ulushi 74,6% ni tashkil etdi.

Bugungi kunga kelib «HPC Systems» Qo'shma korxonasi MChJ 110 kV va 220 kV kuchlanishdagi, 2500 kv.mm kesimdagi polietilen tikilgan izolyatsiyalangan kabellar ishlab chiqaruvchi korxonalardan biri hisoblanadi. 330 va 400 kV kuchlanishlar uchun kabellar chiqarish yaqin kelajakdagi istiqboli rejalardan biri hisoblanadi.

Korxonaning menedjment tizimi ISO 9001:2008 va 14001:2008 halqaro standartlariga muvofiq sertifikatlashtirilgan.

«HPC Systems» mahsulotlari:

- 110 kV va 220kV kuchlanishlar uchun izolyatsiyali polietilen tikilgan statsionar o'tkazmalar uchun kuchlanish kabellari;
- turli ijrodagi 10, 20 va 35 kV kuchlanishlar uchun izolyatsiyali polietilen tikilgan statsionar o'tkazmalar uchun kuchlanish kabellari.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati quyidagicha:

O'rtacha kuchlanish (10 – 35 kV) va yuqori kuchlanish (110 – 400 kV) izolyatsiyali polietilen tikilgan kabellariga mis va alyumin simli kesimi-2500mm² 4000 km/yiliga hajmida;

0,66/1,0 va 20 kV kuchlanishlar uchun o'zi tutib yetkazuvchi izolyatsiyalangan kabellar (SIP) 4000 km/yiliga hajmida;

Past voltli (0,4 kV) maxsus mo'ljallangan kabellar (masalan, yonishni tarqatmaydigan kabellar, tog'li hududlarda shaxtalar va tonnellarga tortish uchun qo'llaniladi) 3000 km/yiliga hajmida³⁷.

Ta'kidlash joizki, yuqorida sanab o'tilgan barcha ishlab chiqarish korxonalari zamonaviy, yuqori texnologiyali uskunalar bilan jihozlangan bo'lib, jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi.

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi 2008 yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan zamonaviy yuqori texnologiyali korxonalarni ishga tushirish, sanoat salohiyati, ishlab chiqarish, transport va

³⁷ www.agmk.uz/idex.php sayti ma'lumotlari

ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda xorijiy, eng avvalo to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida tashkil etilgan.

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi hududidagi korxonalarning asosiy faoliyati etib quyidagi yo'nalishlar belgilangan: avtomobilsozlik, aniq mashinasozlik, elektronika va elektr texnikasi, farmatsevtika va tibbiyot buyumlari, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, plastmassalarni qayta ishlashga zamonaviy, yuqori samarali uskunalar, innovatsiya texnologiyalarini joriy qilgan holda, keng turdagi yuqori texnologiyali, eksportga yo'naltirilgan, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish.

Ma'lumki, yurtimizda avtomobilsozlik sanoati jadal taraqqiy etmoqda. Natijada iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan tabiiy gaz yonilg'isiga ham talab ortmoqda. Bu esa o'z navbatida, avtomobillar uchun gaz ballonlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari tashkil etilishiga asos bo'ldi.

Yaqinda hududda avtomobillar uchun yuqori bosimli gaz balonlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi korxona ishga tushdi. Eng so'nggi rusumdagi uskunalar bilan jihozlangan mazkur korxonada 55 litrdan 154 litrgacha bo'lgan yuqori bosimli metan gaz balonlari ishlab chiqariladi.

Hozirgi kunda bu yerda 100 nafar kishi ish bilan ta'minlandi. Korxona yiliga 120 ming dona gaz balon ishlab chiqarish quvvatiga ega. Shu paytgacha respublikamizga yuqori bosimli metan gaz balonlari, asosan, xorijdan keltirilardi. Endilikda O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulot ichki ehtiyojlarimizni qondirish bilan birga ularni qo'shni davlatlar, jumladan, MDH mamlakatlariga ham eksport qilish imkoniyatini berdi. Kelajakda ushbu zavodda nafaqat metan, balki, propan, butan va kislorod gaz balonlari ishlab chiqarish rejalashtirilyapdi³⁸.

2017-yilda Jizzax viloyatida yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati 9,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 17,8 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari 6,3, qurilish ishlari 11,8, chakana tovar aylanmasi 15,2 foizga o'sdi.

³⁸ [www.navoiy.uz/hokimiyat/101-n sayti](http://www.navoiy.uz/hokimiyat/101-n-sayti) ma'lumotlari

2016 yilda sanoat sohasini rivojlantirishga doir 304, qishloq xo‘jaligida 696 loyiha amalga oshirildi. Tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning huquqiy manfaatlarini himoya qilish borasida olib borilayotgan ishlar samarasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 2017-yilda 80,3 foizni tashkil etdi. Hududiy tasarrufdagi korxonalar tomonidan 38 million dollarlik mahsulotlar va xizmatlar eksporti amalga oshirildi. “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasi viloyat sanoatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2016-yilda bu yerda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar tomonidan 163 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Jizzax erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risidagi farmonga muvofiq, soliq va bojxona to‘lovlari uchun belgilangan imtiyozlar hamda xomashyo va butlovchi qismlar boj to‘lovlaridan ozod etilishi “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasida ham sanoat ishlab chiqarishini yanada rivojlantirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Birinchi Prezidentimizning 2013-yil 18-martdagi “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasini barpo etish to‘g‘risida”gi farmoni asosida tashkil etilgan maxsus hududda o‘tgan qisqa muddatda 19 zamonaviy korxona ishga tushirildi. Iqtisodiy zonaning Jizzax shahridagi hududida 363,7 gektar maydonda 14, Sirdaryo viloyatidagi filialining 150 gektar maydonida 5 loyihani amalga oshirish uchun 91,3 million dollar miqdorida investitsiya sarflandi. Zamonaviy texnologiya asosida barpo etilgan korxonalarda mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi. Doimiy ish o‘rniga ega bo‘lganlarning 60 foizi kasb-hunar kollejlarini bitirgan yosh mutaxassislaridir.

2017 yilda erkin iqtisodiy zonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi 255,2 milliard so‘mni, eksport hajmi 11,9 million dollarni tashkil etdi³⁹.

Hozirgi kunda hududda avtomobillar va yuk mashinalari uchun tormoz kolodkalari, televizor, konditsioner, muzlatkich, kir yuvish mashinasi, mikroto‘lqinli pech, svetodiodli lampalar, polipropilen iplar, video va IP telefonlar, telekommunikatsiya uskunalari, internet tezligini oshiruvchi butlovchi qismlar kabi turli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda⁴⁰. Bu mahsulotlarning aksariyati

³⁹ www.sizjizzakh.uz sayti ma’lumotlari

⁴⁰ www.jizzax.uz/wp-content/uplo sayti ma’lumotlari

nafaqat Jizzax va Sirdaryo viloyatlari, balki mamlakatimizdagi boshqa bozorlar uchun ham yangilikdir.

Erkin iqtisodiy zonada soliq, bojxona va boshqa to'lovlarda belgilangan imtiyozlar bilan birga, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan muhandislik infratuzilma inshootlari barpo etilgani ham sarmoyadorlarni o'ziga jalb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2013-yil 1-iyulda qabul qilingan maxsus dasturga muvofiq, o'tgan davrda "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasiga olib boruvchi 12 kilometr avtomobil yo'li ta'mirlandi, 5,7 kilometr suv tarmog'i, 8 kilometr gaz quvuri yotqizildi. 2017-yilda 7 kilometr ichki avtomobil yo'li, 4,6 kilometr elektr tarmog'i qurildi va ta'mirlandi.

Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hokimliklari tomonidan korxonalar qurilishi uchun yer uchastkalarining o'z vaqtida ajratilishi hamda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi tarmoqlariga ulanish uchun barcha zarur ruxsatnomalar "yagona darcha" tamoyili bo'yicha berilishi tadbirkorlarga katta qulaylik tug'dirmoqda. Erkin iqtisodiy zona uchun yaratilgan bunday qulaylik va imkoniyatlar, ayniqsa, xitoylik sarmoyadorlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. 2017-yil dekabr oyida o'tkazilgan biznes-forum doirasida xitoylik va jizzaxlik ishbilarmonlar 10 loyiha bo'yicha o'zaro kelishuvlarga erishib, memorandumlar imzoladi.

Ayni paytda erkin iqtisodiy zona ma'muriy kengashi xorijiy va mahalliy investorlar bilan dastlabki qiymati 213,3 million dollar bo'lgan 25 loyihani amalga oshirish ustida ish olib bormoqda. Jumladan, 2017 yilning ikkinchi choragida yiliga 24 million kvadrat metr oyna ishlab chiqarish quvvatiga ega "Mingyuan Si Lu Industry" xorijiy korxonasining birinchi navbati ishga tushirilishi rejalashtirilmoqda. Xitoylik sarmoyadorlarning 109,7 million dollarlik investitsiyasi hisobidan barpo etilayotgan ushbu yangi korxona to'liq ishga tushirilishi bilan 391 yangi ish o'rni yaratiladi⁴¹.

Jizzax" erkin iqtisodiy zonasida telekommunikatsiya sohasida uchta korxona faoliyat boshlamoqda

⁴¹ [www.uza.uz/documents/jizzax-maxsus-industrial zona sayti](http://www.uza.uz/documents/jizzax-maxsus-industrial-zona-sayti) ma'lumotlari

“Jizzax” erkin iqtisodiy zonasida “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan xitoylik hamkorlar bilan uchta loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Xitoyning “ZTE Corporation” kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshgan loyiha zamonaviy uskuna va texnologiyalar bilan jihozlangan qo‘shma korxona bo‘lib, 20 ming dona videotelefon hamda shuncha “IP” telefonlar ishlab chiqarish quvvatiga ega⁴².

“Jizzax” erkin iqtisodiy zonasida zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yaratilgan imtiyoz va imkoniyatlar “O‘zbektelekom”ning yana bir hamkori “Huawei Tech. Investment Co. Ltd” kompaniyasini ham manfaatli sheriklikka undadi. Natijada 2 million AQSH dollari miqdoridagi sarmoya evaziga mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi “Broadband Solutions” qo‘shma korxonasi tashkil etildi.

Ilgari telefon, internet, televideniye, radio kabi tarmoqlardan foydalanishni ta‘minlashda ularning har biri uchun alohida sim tortish majburiy edi, – qo‘shma korxona bosh direktori Irismat Fayzullayev. – Endilkda bunga hojat qolmadi. Chunki korxonamiz optik tolali telekommunikatsiya qurilmalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lib, u orqali ko‘rsatilayotgan xizmat turlari tezligi bir necha barobar oshadi.

E‘tiborlisi, 18 nafar kishi doimiy ish o‘rniga ega bo‘lgan yangi korxonada tayyorlanayotgan telekommunikatsiya qurilmalarining dastlabki turkumi Guliston shahri infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida aholiga zamonaviy aloqa xizmatlarini ko‘rsatishni kengaytirish ishlariga yo‘naltirildi.

Majmuadagi uchinchi ishlab chiqarish tarmog‘i esa “Jiangsu Zhongtian Technology Co. Ltd” kompaniyasi bilan birgalikda 500 ming AQSH dollarilik sarmoya evaziga tashkil etilgan “ZTT Telekom” qo‘shma korxonasidir. Bu yerda optik tolali aloqa tarmoqlarida qo‘llaniladigan uskuna hamda ular uchun aksessuarlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

2013 yilda Jizzax erkin iqtisodiy zonasi hududida tashkil etilgan OKMKning ulushi (50%), “Peng Sheng” (O‘zbekiston QK MCHJ (17%) va “Wenzhou

⁴² www.uza.uz sayti ma‘lumotlari

Jinsheng Trade Co., LTD” (XHR) (33%)dan iborat o’lgan “AWP”MCHJ qo’shma korxonasi tashkil etilgan.

Qo’shma korxonaning ustav fondi 7,5 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Qo’shma korxonaning quvvati turli xildagi 1200,0 ming donadan iborat santexnika mahsulotlarini ishlab hiqarishni tashkil etadi. Qo’shma korxonaning asosiy faoliyati sanitar-texnika mahulotlari uchun yuqori texnologiyalar asosida smestitellarni, yopish armaturalari (zulfin)ini ishlab chiqarish, ularga jamlamalarni ishlab chiqargan holda ichki bozor talablarini to’loqonli qondirish va mahsulotlar eksportini ta’minlashdan iboratdir.

«AWP»MChJ Qo’shma korxonasi santexnika mahsulotlari uchun smestitellar va yopish armaturalari, keng asosortimentdagi smestitellar va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi mamlakatimizdagi yagona korxona hisoblanadi.

Korxona tomonidan mamlakatimizda ishlab chiqarilgan santexnika mahsulotlariga bo’lgan iste’molchilarning ishonchini oshirishga qaratilgan maqsadli yo’naltirilgan ishlarni olib borilmoqda, mahsulotning yuqori sifati, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga eng maqbul narxlar va kafolatli majburiyatlarga rioya qilinishi uning afzallik tomonlarini belgilab bermoqda.

Doimiy hamkorlar bilan ishlash davrida sotuvlarning izchil tizimi va har bir mijozga yakka tartibda munosabatda bo’lish uslublari ishlab chiqildi, bundan tashqari qo’shma korxona yuksak bosqichdagi xizmat ko’rsatish va hamkorlikning manfaatli shartlarini ta’minlab ham boradi.

«AWP» MChJ Qo’shma korxonasining barcha mahsulotlari sertifikatlashtirilgan va sifat standartlariga to’liq javob beradi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning 2016 yildagi eksport hajmi 12,0 mlrd.so’m (ekv.da 4,6 mln. doll.)ni tashkil qildi. 2017 yilning 6 oyi davomida 20,0 mlrd. so’m (ekv.da 6,8 mln.doll)tovar mahsulotlari ishlab chiqarildi, bunda eksport hajmi 4,4 mln. doll. eksport ulushi 66,5% ni tashkil etdi.

Ayni davrga kelib «AWP» MChJ Qo’shma korxonasi dinamik ravishda rivojlanib bormoqda va ishlab chiqarish hajmlarini oshirish hamda jalb etiladigan kredit mablag’lari hisobiga mavjud ishlab chiqarish maydonlari bazasida

santexnika mahsulotlari ishlab chiqarish tizimini takomillashtirish loyihasi ustida ish olib bormoqda. Bu kelajakda tayyor mahsulot turi va hajmini oshirishga imkon beradi. Ahil, yakdil jamoa va uning professional mahorati, tajriba va mehnatsevarligi «AWP» MChJ Qo'shma korxonasiga ishlab chiqaruvchi sifatida raqobot qiluvchi korxonalar orasida mustahkam mavqeyga ega bo'lish, yuvinish va oshxonadagi smesitellar va boshqa santexnik mahsulotlarini ishlab chiqarish bozorida yetakchi o'rinlarga chiqib olishini ta'minladi. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan smestitellar va yopish armaturalari horijiy analoglardan umuman qolishmaydi, chunki bu mahsulotlar mazkur sohada ishlab chiqilgan zamonaviy texnologiyalar asosida tayyorlanmoqda⁴³.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 13 aprel kuni "Angren" erkin iqtisodiy zonasini barpo etish to'g'risida"gi Farmonni imzoladi. Hujjat yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, shuningdek, Toshkent viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish, shu asosda yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida qabul qilindi⁴⁴.

"Angren" erkin iqtisodiy zonasining faoliyat yuritish muddati 30 yilni tashkil etadi va bu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkin. "Angren" MIZ faoliyat yuritadigan muddat mobaynida uning hududida maxsus soliq tartibi va bojxona imtiyozlari amal qiladi. Respublikada ishlab chiqarilmaydigan, loyihalarni amalga oshirish doirasida "Angren" MIZ hududiga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallar boj to'lovlari (bojxona yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod etildi.

⁴³ www.agmk.uz sayti ma'lumotlari

⁴⁴ www.mfer.uz> special-economic-zones sayti ma'lumotlari

Angren erkin iqtisodiy zonasi asosan “Angren” logistika markazi sifatida tashkil etilgan. Ayni damda bu logistika markazining 49 % xorijiy investirlar qo’lida. Asosan u avtomobil va temir yo’l yuk tashuvchilari xizmatini ko’rsatishga iqtisoslashgan. “Angren” logistika markazi 2010 yilda Toshkent viloyatidagi temir yo’l stansiyasi negizida tashkl etilgan.

2.2-jadval

“Angren” erkin iqtisodiy zonada 2016 yil holatiga amalga oshirilgan investitsiya loyihasi haqida ma’lumot⁴⁵

№	Loyihaning nomi va tashabbuskori	Chet el investor	Quvvati	JAMI	Chet el investitsiyasi	Yaratilgan ishchi o’rinlar soni
1	Ishlatilgan texnik moyni qayta ishlash OAO	Prista oil Holding EAD Bolgariya	43,0 mln tonna	15,0	7,7	49
2	Zamonaviy shakar zavodi IP OOO “Angren” shakar	Kio investment Ptc LTD (Singapur)	1000 tonna sutkada	108,5	108,5	200
3	Energiyani tejaydigan nurli diodli lampalar ishlab-chiqarish OOO “EAL-NUR”	“EA Lightigs Co LTD ” Korea	48 mln dona	1,0	0,5	23
4	Mis quvur ishlab chiqarish zavodi	-	8,0 mln tonna	35,48	-	168
5	Texnik kremniy ishlab chiqarish OOO “Uz-Shindong Sition”	“Shingdong Enercom inc” Korea	5 mln tonna	8,67	4,7	49
6	Sanitary gigenik keramika ishlab chiqarish. DIP “TIAT Ceramic”	TTIOT FS CO LTD Korea	510 ming dona	28,8	20,0	300
	Jami			197,5	141,4	789

Markazning asosiy vazifasi O’zbekistonning barcha hududidan temir yo’l orqali kirib keladigan yuklarni yil davomida kafolatlangan hoda “Qamchiq” dovoni orqali Farg’ona vodiysi viloyatiga yuborishdir. Logistika markazining yuk amaliyotlari hajmi 4 mln tonnani tashkil etadi. Transit- yuk terminali maydoni 8,5 gektarga yaqin, avtomobil parkida esa 340 dan ortiq transport texnikasi mavjud.

⁴⁵ www.UzReport.uz ma’lumatlari asosida tayyorlandi

Asosiy tashiladigan yuklar sirasiga “GM Uzbekistan” avtomobillari, avtomobil ehtiyot qismlari, Farg’ona neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlari, kimyo va qishloq xo’jalik mahsulotlari kiradi⁴⁶.

“Angren” erkin iqtisodiy zonasida 9 ta sarmoyaviy loyiha amalga oshirilishiga tayyorgarlik ko’rilmoqda, 2017 yil “Angren” erkin iqtisodiy zonasida jami 300 mln.dollar baholanyapdi.Xususan, charmni qayta ishlash, choksiz temir trubalar va armatura, parmalash va silliqdash elektr qo’l mashinalari, bezakli spool pliykalar va sanitar fayans, konveyerli tasmalar, qishloq xo’jaligi va avtomobil shinalari, keramogranit, elektr nasoslar va boshqa zarur mahsulotlar ishlab chiqarish rijalashtirilyapdi.Ushbu qiymatning 40,35 mln.dollari to’g’ridan-to’g’ri xorijdan kiritiluvchi investitsiyalar tashkil etiladi⁴⁷.

«KNOW-HOW IN PRODUCTION PROCESS» MChJ Qo’shma korxonasi 2006 yilda tashkil etilgan. Korxonaning asosiy ish faoliyati TS 21407711-01:2015 muvofiq mis kuporosi va tarkibi aniqlab bo’lmaydigan maydaparchali mis kuporosi chuqur qayta ishlash hisoblanadi. Korxona xalqaro standartlar sifatiga mos keladidigan mahsulot ishlab chiqaradi va uni dunyo bozorida samarali keng targ’ib etmoqda. Qo’shma korxonaning Ustav fondi 1,9 mln. AQSH dollarini tashkil etadi.

Qo’shma korxonaning ta’sischiylari quyidagilar:

Xorijiy ishtirokchi tomonidan: «CONTESSA VENTURES LIMITED» kompaniyasi (Buyuk Britaniya) – 60%. O’zbekiston tomonidan: «Olmalik KMK»AJ - 40%. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport hajmi 2015 yilda 23,5 mlrd.so’m(ekv. da 9,1 mln. doll.)ni eksport ulushi 98,8% ni tashkil etdi.

«KNOW-HOW IN PRODUCTION PROCESS» MChJ Qo’shma korxonasi ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini oshira borib, sifatni nazorat qilishga alohida e’tiborni qaratmoqda. Korxonada FAMI-QS va HACCP qoidalari, talab va me’yorlariga javob beradigan menejmentning integratsion tizimi tatbiq etilgan.

⁴⁶ www.m.sputniknews-uz.com sayti ma’lumotlari

⁴⁷ www.uzreport.uz sayti ma’lumotlari

FAMI-QS – Yevropa mamlakatlaridagi ozuqa qo'shimchalari va premikslarni ishlab chiqaruvchilari uchun tuzilgan qoidalar majmuasidir. U ishlab chiqaruvchiga oziq-ovqat gigienasiga qo'yiladigan Yevropa talablariga binoan ozuqa qo'shimchalari va premikslar xavfsizligini ta'minlashga hamda mahsulotni nazorat qilishga imkon beradi.

- NASSR (XASSP) – xavfli omillar, xususan mahsulotning xavfsizligini aniqlash, baholash va nazorat qilish imkonini beruvchi tizimdir. NASSRning asosi - tizimli yondoshuv bo'lib, u quyidagilar imkonini beradi:

- xavfsizlik ko'rsatkichlarini mahsulotning barcha hayotiy bosqichlarini, jumladan xom-ashyoni olishdan boshlab so'ngi iste'molchi undan foydalanish davrigacha qamrab oladi;

- yaroqsizlikni to'g'rilash va mahsulotni qaytarib olish bo'yicha kechiktirilgan harakatlar o'rniga Omilkor choralarni ko'rish;

- mahsulotlarning xavfsizligi ta'minlash uchun javobgarlikni muqum belgilash;

- tanqidiy jarayonlarni xatosiz aniqlash va ularga korxonaning asosiy manbaa va kuchlarini jamlashtirish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarda nuqson(brak)larni kamaytirish hisobiga ishlab chiqarishning umumiy hajmida sezilarli darajada tejamkorlikga erishish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar xavfsizligi borasida hujjatlar bilan tasdiqlangan ishonchga erishish.

«KNOW-HOW IN PRODUCTION PROCESS» MChJ ISM tizimini joriy etgan holda sifatni boshqarish bo'yicha dunyoning eng ilg'or tajribalariga tayangan holda o'z faoliyatining samaradorligiga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bundan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish jarayonlari takomillashtirilmoqda, xom-ashyolar va tayyor mahsulotlarda tahlillar o'tkazishning zamonaviy uslublari qo'llanilmoqda.

Bugungi kunda “kuzatganda aniqlab bo'lmaydigan xususiyatli maydaparchali mis kuporosi” inson faoliyatining turli xo'jalik sohalariga yanada ko'proq

qo'llanilmoqda. Fanning zamonaviy yutuqlari hisobiga mis kuporosidan foydalanish, qishloq ho'jaligi, chorvachilik, parandachilik, tibbiyot va sanoatda uzoq vaqtdan beri yig'ilib qolgan muammolarni samarali hal qilishning yangi imkoniyatlari ochildi.

«KNOW-HOW IN PRODUCTION PROCESS» MChJ Qo'shma korxonasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tashqi bozorda nihoyatda talabgirdir, korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar to'liq hajmda eksportga yo'naltiriladi. Turkiya, Eron, Ozarbayjon, Vietnam, Polsha, Niderlandiya qirolligi va Yevropaning boshqa davlatlari hamda Janubiy-sharqiy osiyo mamlakatlari korxona mahsulotlari sotilayotgan mintaqalar deb hisoblanadi⁴⁸.


2014-yil 17-sentabr kuni "Angren" erkin iqtisodiy zonasida "Angren shakar" xorijiy korxonasi o'z faoliyatini boshladi va qisqa muddat ichida O'zbekiston birja bozorida mazkur xo'jalik yurituvchi sub'yekt tomonidan sotilgan mahsulotning umumiy hajmi qariyb 700 tonnani tashkil etdi. Treyderlarning fikricha, birjada yangi zavod mahsulotining paydo bo'lishi tufayli mamlakatimiz o'z ichki ehtiyojini to'liq ta'minlashga erishdi. Chunki Xorazmdagi turdosh korxona ilgari iste'molchilar talabining yarmini qoplab kelar edi. "Angren shakar" zavod 20 oydan ortiqroq muddatda qurib bitkazildi. Zavodga o'rnatilgan dastgohlar Germaniyaning eng mashhur kompaniyasida ishlab chiqarilgan bo'lib, ular ohangaronlik, nurobodlik va olmaliqlik yosh kasb – hunar bitiruvchilari faoliyat yuritmoqda. Bugungi kunda zavodda 1000 tonna mahsulot ishlab chiqarilayapti va bu butunlay jahon standartlariga mos kelmoqda. Angren shahrining kiraverishida joylashgan yana bir zamonaviy korxona ham tashqi mahobati va ko'rkamligi bilan kishi diqqatini tortadi. Uning ta'sischisi — Olmaliq kon-metallurgiya kombinati. Bu yerda sovitchik, konditsioner va radiatorlar tayyorlashda qo'llaniladigan 4 millimetrdan 29 millimetrgacha hajmdagi mis quvurlari ishlab chiqarilayapti. Buning uchun zarur bo'lgan asosiy xom ashyo — mis katodi kombinat tomonidan yetkazib beriladi. Uni qayta ishlash jarayoni esa quyuv sexidan boshlanadi. Bu zavodni ishlash jarayonini kuzatadigan bo'lsak, katta qozonda ikki soat mobaynida

⁴⁸ www.agmk.uz sayti ma'lumotlari

obdan qaynatilgan katod mis quvurlarga, so'ngra navbatdagi murakkab texnologik ishlovlar natijasida 50 dan ziyod xildagi kattayu kichik hajmli tayyor mahsulotga aylanadi. Mis quvurlarimizning eksport hududi tobora kengayib borayapdi. Ayni paytda Yevropaning mashhur kompaniyalari bilan ham shartnomalar tuzilmoqda.

Hozirgi kunda "Angren" erkin iqtisodiy zonasida jami 11 korxona faoliyat ko'rsatayapti. Ularda shakar va mis quvurlaridan tashqari, ko'chalar hamda binolar uchun tejankor yoritqichlar, ko'mir briketlar, zamonaviy qurilish materiallari kabi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Korxonalarda ish bilan band bo'lganlar soni esa bir yarim ming kishiga yetib qoldi. Umuman olganda, "Angren" MIZ ma'muriy kengashi tomonidan 23 ta loyiha ma'qullangan bo'lib, ularning qiymati qariyb 458 million AQSh dollarini tashkil qiladi⁴⁹.

Amalga oshirilayotgan loyihalarning tarmoqlar va sohalar bo'yicha tahlili ko'rsatishicha, ularning qiymati bo'yicha etakchi o'rinni "O'zfarmosanoat" - 109,3 mln. AQSh dollari (30%), "O'zeltexsanoat" - 88,2 mln. AQSh dollari (24%), "O'zbekneftgaz" - 85,4 mln. AQSh dollari (23%) egallamoqda. (-rasm).



2.1-rasm. Navoiy EIIZda tashkil etilayotgan korxonalarning sohalar bo'yicha ulushi⁵⁰

"Angren" MIZ xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatining asosiy yo'nalishi

⁴⁹ www.yangiliklar.net sayti ma'lumotlari

⁵⁰ Raimjonova M.A. Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. T.: Extremum-press, 2013. 115-b.

erkin iqtisodiy zonaga kiruvchi mintaqaning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalangan holda jahon bozorlarida raqobatbardosh yuqori qo'shilgan qiymatga ega keng ko'lamli yuqori texnologik mahsulot ishlab chiqarish sifatida belgilab qo'yilgan.


“Angren” MIZ hududida minreal xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha korxonalarni rivojlantirish, mahalliy xom ashyo bazasida yuqori texnologik mahsulot va yaqin kooperatsiya aloqalari o'rnatish asosida materiallar ishlab chiqarish hamda zona korxonalari o'rtasida va umuman respublika bo'yicha sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

“Angren” MIZni tashkil etish kontseptsiyasidan va tanlangan mezonlardan kelib chiqqan holda maxsus zona hududida quyidagi tarmoqlar va yo'nalishlardagi korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda: elektrotexnika, mashinasozlik, kimyo va neft-kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati va meva-sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish, konchilik sanoati va boshqalar. O'tgan qisqa davrda zonada Janubiy Koreya, Singapur, Avstriya, Buyuk Britaniya, Bolgariya kabi davlatlarning etakchi firma va kompaniyalari bilan hamkorlikda turli o'lchamdagi mis quvurlar, texnik kremniy, tejamkor lampalar, ko'mir briketlari va zamonaviy qurilish-pardozlash materiallari, shuningdek, shakar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalar faoliyat boshladi. Qiymati 166,4 million AQSh dollarilik 9 ta loyihaning ro'yobi tufayli bu yerda 1150 dan ortiq ish o'rinlari yuzaga keldi. Mazkur korxonalar tomonidan o'tgan yili 200,4 milliard so'mlik iste'mol tovarlari tayyorlanib, ichki hamda tashqi bozorda sotildi. “Angren” MIZda 2013-2015 yillarda umumiy qiymati 163,04 million AQSh dollari bo'lgan 8 ta loyiha amalga oshirildi⁵¹.

Ayni shu yo'nalishda to'plangan tajribani hisobga olib, o'tgan yilning mart oyida Jizzax viloyatida “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilib, Sirdaryo viloyatida bu zonaning filiali faoliyat ko'rsatmoqda. Bugungi kunda “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasi hududida transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

⁵¹ www.sizangren.uz. sayti ma'lumotlari.

“Jizzax” MIZ hududida moddiy-xomashyo resurslarini qayta ishlash, zona korxonalari o’rtasida kooperatsiya aloqalarini o’rnatish va respublika miqyosida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va mahalliy xomashyo va materiallar negizida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. “Jizzax” MIZni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari asosida quyidagi tarmoq korxonalar faoliyat ko’rsatmoqda: elektronika; mashinasozlik; qurilish materiallari; kimyo sanoati; engil sanoat; oziq-ovqat sanoati; farmasevtika, tibbiyot va kosmetika mahsulotlari; teri va terini qayta ishlash va boshqa yo’nalishlar. So’nggi yillarda mazkur zona hududida Xitoy kompaniyalari ishtirokida 100 ming dona mobil telefon ishlab chiqarish, shuningdek, chorva mahsulotlarini qayta ishlash va ozuqa tayyorlash bo’yicha umumiy qiymati qariyb 6 million dollar bo’lgan dastlabki 3 ta loyiha amalga oshirildi. Bugungi kunda “Jizzax” MIZ hududida 30,9 mln. dollarlik 8 ta loyiha amalga oshirilgan⁵².



2.2-rasm. 2016 yil 1 yanvar holatiga O’zbekistonda tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlarda amalga oshirilgan loyihalar soni va moliyalashtirish hajmlari⁵³

2017 yil 1 yanvar holatiga O’zbekistondagi EIHLarda umumiy qiymati 300 million dollardan ortiq 38 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilgan (5-rasm).

⁵² <http://www.sizjizzakh.uz>. sayti ma’lumotlari.

⁵³ <http://navoi fiez.uz>; www.sizangren.uz; <http://www.sizjizzakh.uz>. sayti ma’lumotlari.

Bugungi kunda “Navoiy” EIIZda “Olive Telecom” qo’shma korxonasi, “Uzkorlighting”, “Hansang-Pharm”, “UzEraeAlternator”, “O`z Minda”, “Telecom Innovations”, “NB Cosmetics”, “Navoiy Hunan Pulp”, “Agrofresh”, “KO-UNG Cylinder”, “Hansang Pharm”, “Olive Telecom”, “Ariston Thermo-UTG” mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo’shma korxonalar, “Angren” MIZda “Jun long industrial” xorijiy korxonasi, “Angren quvur zavodi” unitar korxonasi, “Egl-nur”, “National ceramics”, Bricket Ugol Standart” qo’shma korxonalari, “Uz-Shindong Silicon”, “Angren elektrodleri” mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo’shma korxonalar hamda “Jizzax” MIZda “Hangzhou Zhongwu Electronic Meters”, “Golden Auto Parts”, “Sell Screw Products”, “Buy Fitting Product” mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo’shma korxonalar samarali faoliyat ko’rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizdagi EIZlarda maxsus soliq va bojxona imtiyozlarining amal qilishi, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasining mavjudligi, sifatli va barqaror energiya va suv resurslari ta’minoti, investorlarga xizmat ko’rsatish uchun qulay sharoitlar, EIZlarning geografik qulay joylashuvi, mineral-xomashyo resurslarining mavjudligi hamda malakali mehnat resurslari EIZlar faoliyati samaradorligini ta’minlash imkonini beradi. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko’lamini yanada kengaytirish uchun respublikaning boshqa hududlarida ham maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

2.2. URGUT, G’IJDUVON, QO’QON VA HAZORASP erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning amaliyoti

Mamlakatimizning turli hududlarida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ularda zamonaviy yuqori texnologiyalarni keng joriy qilish borasida amalga oshirilayotgan izchil ishlar xalqaro bozor talablariga javob beradigan raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, mavjud xomashyoni

chuqur qayta ishlash orqali tayyor mahsulotlar turi va ulushini ko'paytirish, eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etayotir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 12-yanvardagi "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni ana shunday hujjatlardan bo'ldi. Oziq-ovqat, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, mashinasozlik va avtomobilsozlik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarini yuqori darajada rivojlantirish va aholini daromadlarini oshirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni o'z mutaxassisligiga ko'ra ish bilan ta'minlash maqsad qilinmoqda⁵⁴.

Mazkur EIZlarda ishlab chiqaruvchilarga keng va qulay imkoniyatlar yaratilgan, jumladan:

yer solig'i, daromad solig'i, yuridik shaxslar va mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, shuningdek, respublika yo'l jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmlardan;

mamlakatimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmagan va loyihalarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha chetdan keltiriladigan qurilish materiallarini bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtirish yig'malari bundan mustasno);

o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun chetdan keltiriladigan asbob-uskunalar, xom-ashyo, materiallar va butlovchi buyumlarni bojxona to'lovlaridan ozod etiladi (bojxona rasmiylashtirish bundan mustasno).

Mazkur imtiyozlar kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab 3 yildan 10 yil muddatgacha, jumladan:

300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 3 yil muddatga;

54 www.zamin.uz>economy> 14881 sayti ma'lumotlari

3 million AQSH dollaridan 5 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 5 yil muddatga;

5 million AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 7 yil muddatga;

10 million va undan ko‘p AQSH dollari hajmdagi investitsiyalar so‘nggi 5 yilda amaldagi stavkalardan 50 foiz kam hajmdagi daromad solig‘i va yagona soliq to‘lovi stavkalari qo‘llangan holda – 10 yil muddatga beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi tahlilida 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga xorijiy, avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob‘ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, viloyat, tuman va shaharlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir ko‘plab vazifalar belgilangan. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonolari faoliyati samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish borasida olib borilayotgan ishlar bunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz rahbarining 2016 yil 26 oktyabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq ushbu zonalar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 14 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. «Navoiy», «Angren», «Jizzax», «Urgut», «G‘ijduvon», «Qo‘qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarida umumiy qiymati 486 million dollarga teng 62 loyiha amalga oshirilgan, 4 ming 600 dan ortiq ish o‘rni yaratilgan. Farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan «Nukus-farm», «Zomin-farm», «Kosonsoy-farm», «Sirdaryo-farm», «Boysun-farm», «Bo‘stonliq-farm», «Parkent-farm» singari 7 yangi erkin iqtisodiy zonani rivojlantirish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimiz topshirig'iga asosan erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, xoriждан yuqori texnologik uskunarlar xarid qilish uchun O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'i hisobidan 100 million dollar miqdorida chet el valyutasidagi kredit liniyasi ochilgan. Kichik sanoat zonalarida direktsiyalar tashkil etilgan. Kredit olish va bank xizmatlaridan foydalanishda muammo bo'lmasligi uchun har bir zonaga muayyan tijorat banki birlashtirilgan. Bozor talablari va import nomenklaturasini o'rganish asosida tadbirkorlar uchun takliflar, istiqbolli loyihalar ro'yxati shakllantirilgan. Kichik sanoat zonasida ishlaydigan sub'ektlar 2 yil barcha soliqlardan ozod etilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri tumanlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarga tashriflari chog'ida bo'sh turgan yoki samarasiz ish yuritayotgan ishlab chiqarish binolarini borib ko'rdi. Ulardan samarali foydalanish, yangi korxonalar tashkil etishni rag'batlantirish maqsadida ushbu binolar negizida kichik sanoat zonalarini tashkil etildi. Mamlakatimizdagi kichik sanoat zonalarini 96 taga etdi. Bugungi kungacha ushbu zonalarda umumiy qiymati 535 milliard so'mga teng 1021 loyiha amalga oshirilgan, 9 ming 600 dan ziyod ish o'rni yaratilgan. Loyihalar doirasida nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham xaridorgir bo'lgan engil sanoat, kimyo, oziq-ovqat mahsulotlari, elektr texnikasi buyumlari, zamonaviy qurilish materiallari, mebel va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari, 248 loyihani amalga oshirish natijasida 11 ming yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilmoqda. Kichik sanoat zonalarining sarmoyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishdagi ahamiyati xususida alohida to'xtalib o'tildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tegishli vazirlik, idora va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bu sohadagi faoliyatini tanqid qilib, ularda tashabbuskorlik etishmasligi, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish darajasi sustligini ta'kidladi. Xususan, mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan loyihalarni ko'rib chiqish va muvofiqlashtirish jarayoni murakkabligicha qolib, odatda rasmiy xarakter kasb etmoqda. Erkin

iqtisodiy zona qatnashchilariga er uchastkalari ajratish masalalarini hal etishda hanuz byurokratizm asoratlari saqlanib qolmoqda. «Urgut», «Qo'qon», «G'ijduvon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalar, shuningdek, farmatsevtika yo'nalishidagi erkin iqtisodiy hududlarda yangi korxonalar tashkil etish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish ishlari sust bormoqda. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv va boshqa kommunikatsiya tarmoqlari bilan barqaror ta'minlashda muammolar kuzatilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida investor va tadbirkorlarga yanada keng imkoniyatlar yaratishga oid kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berdi. Avvalo, ushbu zonalar faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish, bugungi zamon talablariga moslashtirish, barcha uchun ochiq va tushunarli mexanizm yaratish zarurligi ta'kidlandi. Er uchastkalari, bo'sh turgan binolarni ajratish tartibini soddalashtirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshiriladigan loyihalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ma'muriy kengash tomonidan ko'rib chiqiladi. Shu paytgacha bu kengash 17 vazirlik va idoradan iborat edi. Prezidentimiz ko'rsatmasiga muvofiq ularning soni 4 ta etib belgilandi.

Bu borada yangi tizim – hududiy komissiyalar tashkil etilib, ularning loyihalarni ko'rib chiqish va ruxsat berish huquqlari kengaytirildi. Shuningdek, iqtisodiy zonalarda joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish mezoni qayta ko'rib chiqiladi, erkin iqtisodiy zona ishtirokchilariga kredit ajratishni yaxshilash hamda muhandislik ta'minoti vositalari bilan ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinadi. Iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida joylashgan korxonalarni barcha zarur muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va infratuzilma bilan o'z vaqtida ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonasi uchun 325 gektardan ortiq yer maydoni ajratiladi. Keyinchalik ushbu hudud 600 gektargacha kengaytiriladi, – deydi Hazorasp tumani hokimining o'rinbosari

Maqsud Rahimov. – Davlatimiz rahbari joriy yil 27-yanvar kuni Xorazm viloyatiga tashrifi davomida ushbu hududda bo‘lib, bu yerda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan zarur topshiriqlar berdi. Ayni paytda erkin iqtisodiy zona chegaralarini o‘rnatish, bojxona posti tashkil qilish, xorijiy va mahalliy investorlarni jalb etish ishlari amalga oshirilmoqda. Tashkil etiladigan zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari uchun zarur imkoniyatlar yaratish maqsadida muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi, xususan, gaz, suv va elektr tarmoqlari, kanalizatsiya, avtomobil va temir yo‘llari, aloqa tizimi shakllantirilmoqda.

Yangi erkin iqtisodiy zonada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, qadoqlash, to‘qimachilik, poyabzal va charm-galantereya, kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari kabi qator yo‘nalishlarda zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etiladi.

Hududda ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish bo‘yicha bugungi kunda umumiy qiymati 152 million dollardan ortiq miqdordagi investitsiya mablag‘lari hisobidan 53 loyiha takliflari ishlab chiqilgan. Tadbirkorlar tomonidan umumiy qiymati 25 million 700 ming dollarga teng bo‘lgan 7 loyiha taqdim etilgan. Ana shunday loyihalardan biri “Pitnak Panel” mas’uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi O‘zbekiston – Xitoy qo‘shma korxonasi rahbari Xushnud Jumaniyozov tomonidan taklif etildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan yaratilgan bunday qulay investitsiya sharoitidan samarali foydalangan holda, Xitoyning “Xinjiang zaman import and export trade CO” LTD kompaniyasi bilan hamkorlikda umumiy qiymati 3 million 500 ming dollarlik loyihani amalga oshirmoqchimiz, – deydi X.Jumaniyozov. – Loyihaga ko‘ra korxona tomonidan yiliga 200 ming dona penopolistirool bloklar, sendvich panellar ishlab chiqariladi. Kasb-hunar kollejlarini bitirgan 40 dan ortiq yosh mutaxassis ish bilan ta’minlanadi.

Muxtasar aytganda, “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonasi hududda ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalanish, shu asosda yangi ish

o‘rinlari tashkil etish, pirovardida aholini barqaror daromad bilan ta‘minlash, xalqimiz turmush farovonligining muttasil yuksalishiga xizmat qiladi⁵⁵.

“Urgut” erkin iqtisodiy zonasi hududida O‘zeltexsanoat va Ideal Elektro Lyuks kompaniyalari Turkiyaning Odul kompaniyasi bilan birgalikda umumiy qiymati 7 million dollar bo‘lgan loyihani amalga oshirmoqda. Loyiha gaz plitalari, elektr duxovkalar va kir yuvish mashinalari ishlab chiqarishni ko‘zda tutgan.

Shuningdek, ushbu hududda Coven Elektro kompaniyasi zamonaviy changyutgichlar ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda. Korxona yiliga 30 mingta chang yutgich ishlab chiqarishga qaror qilgan

Prezident Farmoniga muvofiq shu kunga qadar “Urgut” erkin iqtisodiy zonasining Urgut tumanida "Urgut-1", Nurobod tumanida "Urgut-2" va Pastdarg'om tumanida "Urgut-3" hududlari tashkil etildi. Ushbu hududlar uchun jami 816 gektar yer ajratilib, ularni zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta‘minlash ishlari boshlab yuborilgan. Bugungi kunda yengil sanoat, maishiy texnika, tibbiyot jihozlari, farmatsevtika, charm-poyabzal, kantselyariya mollari, qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda xorijiy va mahalliy investorlar bilan 2017-2018 yillarga mo'ljallangan 83 loyiha tayyorlangan, ularning 20 tasi joriy yilning o'zida ishga tushiriladi.

Umumiy qiymati 250 mln. AQSh dollarni tashkil etuvchi ushbu loyihalar tijorat banklari krediti va ta‘sischilarning mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Natijada 5,5 ming yangi ish o'rni tashkil etiladi. – Joriy yilning ikkinchi choragida yiliga 15 ming tonna 100 foiz import o'rnini bosuvchi eksportga yo'naltirilgan poleuretan mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi “DERKIM POLIURETAN URGUT” O'zbekiston–Turkiya qo'shma korxonasini ishga tushirilishi rejalashtirilmoqda, – deydi “Urgut” erkin iqtisodiy zonasi deriktor o'rinbosari G'ayrat Abduraxmatov. – Loyiha qiymati 6 mlrd. 250 mln. AQSh dollarini tashkil etadi. Ushbu yangi korxona ishga tushirilishi bilan 65 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Ayni paytda mazkur hududda 40 sanoat korxonasi, jumladan, 19 qo'shma korxona faoliyat

⁵⁵ www.jahonnews.uz sayti ma'lumotlari

ko'rsatmoqda. Ularda 1 ming 200 ga yaqin kishi ish bilan ta'minlangan. O'tgan yili qiymati 157,5 mlrd. so'mlik 20 turdan ziyod sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, eksport hajmi 10 mln. AQSh dollaridan oshdi. Xususan, bu yerda mahalliy xomashyodan gilam va gilam mahsulotlari, sintetik tola, elektr duxovkalar, gaz plitalari, bir marta ishlatiladigan plastik idishlar, polimer yelim va boshqa mahsulotlar tayyorlanmoqda⁵⁶.

II bob bo'yicha xulosa

Sanoat ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, modernizatsiyalash maqsadida investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etilishining o'sishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri, bu so'nggi yillarda yurtimizda erkin iqtisodiy zonalar - "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi, «Angren» va «Jizzax» erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi va Prezidentimizning tashabbusi bilan yana 4 ta yangi erkin iqtisodiy zonani tashkil etilishidir.

Mazkur erkin iqtisodiy zonalarining barpo etilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ichki va tashqi bozorlarda yangi eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni o'zlashtirishiga imkon berdi va investorlar faoliyatining yanada kengayishi uchun qo'shimcha shart-sharoit va qulayliklar yaratdi. Asosan, bular zamonaviy qurilish va jihozlash materiallari, iste'mol tovarlari, telekommunikatsiya, neftgaz texnologik uskunalari, kimyo, avtomobil va elektrotexnika sanoati hamda boshqa yuqori texnologik sanoat ishlab chiqarish yo'nalishlaridagi mahsulotlardir.

Shu bilan birga, ushbu erkin iqtisodiy zonalar joylashgan hududlarda mavjud bo'lgan xom-ashyo va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ko'lamini oshirishga, zamonaviy sanoat ishlab chiqarish quvvatlarining tashkil etilishi yangi ish o'rinlari barpo etilishiga, bandlik darajasining yuqori bo'lishiga va pirovardida aholi farovonligining oshishiga olib keladi.

⁵⁶ www.zarnews.uz sayti ma'lumotlari

Bunday iqtisodiy zonalarini tashkil etish natijasida hudud iqtisodiyotining rivojlanishiga katta yordam bermoqda. Yildan – yilga hududlarda jahon brendidagi turli xil mahsulotlarning ishlab chiqarilayotganini aytishmiz mumkin. Hozirgi kunda Navoiy erkin iqtisodiy zonasida hududida yangi korxonalar tashkil etilmoqda, natijada har bir korxona 250 ta yosh kadrni ish bilan ta'minlash maqsad qilinmoqda. Bundan tashqari Jizzax erkin iqtisodiy zonasi hududida Fransiyaning "Pejo Sitroen" va "O'zavtosanoat" AK o'rtasida yengil tijorat avtomobillarini ishlab chiqariladi. Zavod "Peugeot" va "Sitroen" brendlari ostida yo'lovchi va yuk tashishga mo'ljallangan yengil tijorat avtomobillarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtiriladi.

Dunyoda nom qozongan bunday kompaniyalar bilan olib borayotgan hamkorligimiz qisqa vaqt ichida iqtisodiyotimiz tarmoqlarini tubdan modernizatsiya qilish, mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va uning turini ko'paytirish, jahon bozorlariga raqobatdosh yangi mahsulotlar bilan chiqish imkonini bermoqda. "Navoiy", "Angren" va "Jizzax" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish hisobidan chet ellik investorlar bilan yo'lga qo'ygan hamkorligimiz o'zining yuksak samarasini ko'rsatmoqda.

Eng muhimi, O'zbekistonda mahalliy va chet ellik investorlar nafaqat mablag' sarflab, daromad olmoqda, balki korxonalarni birgalikda boshqarmoqda, xorijlik muassislar qo'shma korxonaga, avvalo, ilg'or texnologiyalarni olib kirmoqda, ishlab chiqarishni zamonaviy asosda tashkil etish va boshqarishni joriy qilmoqda.

Bu boradagi tajriba hamkorlikning aynan mana shu shakli eng ko'p samara berayotgani va eng yaxshi istiqbolga ega ekanini ko'rsatmoqda.

III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ERKIN IQTISODIY ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. Erkin iqtisodiy zonalarning rivojlantirish yuzasidan Xitoy tajribasi

Xitoy Xalq Respublikasi misolida oladigan bo'lsak, maxsus iqtisodiy zonolari iqtisodiyotning barcha sohalarini modernizatsiyalash va yuqori texnologiyalar raqobatbardosh ishlab chiqarishga erishishda muhim omil bo'lmoqda. Oxirgi o'ttiz yil davomida Xitoyda kuzatilgan iqtisodiy o'sish haqiqatda "iqtisodiy mo'jiza" bo'lgani hech kimga sir emas. Uning rivojlanish tendensiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1976-yilgacha Xitoy yopiq iqtisodiyot hisoblanar edi. Ammo 1978-yilda Den Syaopin tomonidan olib borilgan "Ochiq eshiklar" siyosati va shu maqsaddagi islohotlar natijasida Xitoy jahon iqtisodiyotiga integratsiyalasha boshladi hamda Xitoy YaIMi yiliga o'rtacha 10 % o'sishga erishdi. 1979-2014 - yillarda Xitoyning aholi jon boshiga YaIMi qariyb 16 marta, ya'ni 195 AQSh doll.dan 3583 AQShga o'sdi. 2010-yilga kelib YaIM hajmi bo'yicha Yaponiyani ortda qoldirib, dunyodagi eng katta ikkinchi iqtisodiyotga aylandi. Shu davr mobaynida 500 mln.dan ortiq aholi qashshoqlikdan xalos bo'ldi. Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, ko'p yillar davomida hukm surgan markaziy rejalashtirilgan iqtisodiyotdan zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o'tish maqsadida 1978-yildan boshlab "Ochiq eshiklar" siyosati doirasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Bunda Xitoyda turli shakldagi maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ)ni tashkil etish muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, MIZlarni tashkil etishdan asosiy maqsadlar quyidagicha edi:

- xorijiy kapitalni maksimal darajada jalb qilish, sanoatning ilmiy sig'imli sohalarini yuqori texnologiyalar asosida rivojlantirish;
- xalqaro mehnat taqsimotida samarali ishtirok etish, eksport hajmi va xorijiy valyuta tushumini oshirish;
- MIZ joylashgan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni Hong Kong, Singapur va boshqa yangi industrial davlatlaridagi kabi rivojlantirish;

- arzon va ortiqcha ishchi kuchi hamda boy xomashyo salohiyatidan to'g'ri foydalanish;
- boshqaruv malakasiga ega bo'lish va milliy kadrlarni tayyorlash.

Xitoyda MIZlarning tashkil etilish jarayonini 4 bosqichda kuzatishimiz mumkin: u 1970-yil oxiri 1980-yillar boshlari; 1980-yillar; 1990-yillar va 1990-yildan hozirgi kungacha davom etayotgan zamonaviy davrni qamrab oladi. 1979-yilda Guangdong va Fujian provinsiyalarida “maxsus siyosat va moslashuvchan choralar” tizimining joriy etilishi birlamchi qadam edi va shu maqsadda 1981 -yil noyabrda “Guangdong va Fujian provinsiyalariga alohida iqtisodiy maqom berish to'g'risida” XXR Davlat Kengashi qarori e'lon qilindi. Dastlab, 1980-yil avgustda Guangdong provinsiyasidagi Shenzhen, Zhuhai va Shantou hamda shu yilning oktabrida esa Fujian provinsiyasidagi Xiamen hududlari 4 ta maxsus iqtisodiy zonalarga aylantirildi. Ushbu MIZning maqsadi deyarli bir xil bo'lib, maxsus moliyaviy, investitsion va savdo imtiyozlari orqali hududda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish edi. Ular, asosan, joriy innovatsion siyosatni amalda sinovdan o'tkazish uchun tashkil etilgan bo'lib, agar loyiha o'zini oqlasa, bunday MIZlarni mamlakat bo'ylab keng tarqatish rejasi ko'zda tutilgan. MIZlarda joriy etilgan imtiyozlar va qulay ishlab chiqarish omillari yig'indisi kutilmagan iqtisodiy o'sishga sabab bo'ldi. 1980-1984-yilda yillik Xitoy YaIMi o'rtacha 10 % o'sdi. Bu ko'rsatkich Shenzhenda 58 %, Zhuhaida 32 %, Xiamenda 13 % va Shantouda esa 9 % bo'ldi. 1986-yilgacha Shenzhenda kapital, mehnat, yer, texnologiya, aloqa va transport kabi ishlab chiqarish omillari kompleksi shakllanib bo'lgan edi. 1988-yildan keyin yuqoridagi MIZlar safiga Hainan 5-MIZ sifatida qo'shildi. Yuqorida sanab o'tilgan savdo va investitsiya muhitini rivojlantirish maqsadidagi zonalar o'zini oqlagach, Xitoy o'z “Ochiq eshiklar” siyosatini yanada kengaytirdi. 1984-yilda boshqa turdagi MIZlar – iqtisodiy texnologik taraqqiyot zonalarini, boshqacha aytganda milliy sanoat parklari, tashkil etila boshlandi. MIZlarning iqtisodiy texnologik taraqqiyot zonalaridan (ITTZ) farqi shundaki, MIZ kattaroq hududda, ba'zan butun shahar yoki provinsiyada joylashishi mumkin. Birgina 1984-1988-yillarda qirg'oq bo'yi shaharlarida 14 ITTZ tashkil etildi. 1989 va 2006-yillarda

mos ravishda Shanghai va Tianjin Binhai yangi zonolari ham tashkil etildi. 1992-yilga kelib Xitoyda 35 ta ITTZ muvaffaqiyatli faoliyat yuritardi. Keyinchalik, boshqa turdagi MIZlar ham butun mamlakat bo'ylab tarqala boshladi va bunday zonalarini tashkil etish odatiy holga aylandi. 2008-yilda Xitoyda 14 ta ochiq qirg'oq shaharlar, 15 ta erkin savdo zonolari, 17 eksportni rag'batlantiruvchi zonalar, 52 ITTZ, 53 ta yuqori texnologiyali taraqqiyot zonolari va 15 ta chegaradosh iqtisodiy hamkorlik zonolari ro'yhatdan o'tkazilgan edi. 2013-yil oxirida Xitoyda 5 ta MIZ, 210 ta ITTZ, 15 ta chegaradosh iqtisodiy hamkorlik zonolari, 105 ta yuqori texnologiyali zonalar 13 ta erkin bo'xona zonolari faoliyat yuritishi aniqlandi. Bundan tashqari, 2013-yil 29-sentabrda XXR Davlat Kengashi tomonidan Shanxay (Pudun) erkin savdo zonasini tashkil etish to'g'risida qaror qilindi. MIZlar to'g'risida haligacha yagona normativ hujjat yo'q bo'lib, ularning tashkil etilishi, tugatilishi va faoliyati bilan bog'liq munosabatlar 1982-yilda qabul qilingan XXR Konstitutsiyasi bilan tartibga solinadi. Uning 18-moddasi 2-bandiga ko'ra, "XXR barcha xorijiy korxonalar, tashkilotlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalarga investitsiya kiritishga ruxsat beradi hamda ularning huquq va manfaatlarini qonun bilan himoyalaydi". 1998-yil 26-iyunda "Maxsus iqtisodiy zona va mintaqaviy shelflar to'g'risida" XXR qonuni qabul qilingan. Yana MIZlar to'g'risida 30 dan ortiq normativhuquqiy hujjatlar amal qiladi. Masalan, Umumxitoy Xalq Vakillari Kengashi doimiy qo'mitasi tomonidan Shenzhen (1992-yil iyul), Xiamen (1994-yil mart), Zhuhai va Shantou (1996-yil mart) MIZlarini tashkil etish to'g'risida qaror yuqorida keltirib o'tilgan MIZlar uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Hainan MIZi faoliyati esa 1988-yil aprelda XXR Davlat Kengashi qarori bilan tartibga solib boriladi. MIZ rezidentlari uchun talablar va imtiyozlar quyidagilardan iborat: MIZlarga kiritiladigan xorijiy investitsiyalar miqdori kamida 50 mln. AQSh doll. bo'lishi kerak, oldin bu ko'rsatkich 30 mln. AQSh doll. bo'lgan. Xorijiy rezidentning ustav kapitalidagi ulushi kamida 25 %ni tashkil etishi lozim. MIZ rezidentlari uchun 5 yil davomida alohida soliq imtiyozlari tizimi yo'lga qo'yilgan. Birinchi 2 yil davomida ular umuman daromad solig'ini to'lashmaydi va

keyingi 3 yil davomida soliqning faqatgina 50 %ini to'lashadi, xolos. 2008-yilgacha foyda solig'i maxsus zonada joylashmagan korxonalar uchun 33 %, MIZ rezidentlari uchun esa 15 % etib belgilangan. XXR Davlat kengashining 2007-yil 26-dekabrdagi "Korxonalarga daromad solig'i bilan bog'liq imtiyozlar berishning o'tish siyosati to'g'risidagi" qaroriga ko'ra foyda solig'i 2008-yilda 18 %, 2009-yilda 20 %, 2010-yilda 22 %, 2011 -yilda 24 % va 2012-yilda 25 %ga ko'tarildi. 2012-yildan boshlab qat'iy 25 % qilib o'rnatildi. Savdo, qayta ishlash va import-eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi MIZ rezidentlari uchun Qo'shilgan qiymat solig'i 17 % deb belgilangan.

3.1-jadval

XXR MIZlarining faoliyat doirasi va investitsiya manbayi⁵⁷

MIZ nomi	Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni	Ixtisoslashuvi	Kritilgan xorijiy investitsiyalar manbayi
Shantou	3000 dan ortiq	Neftkimyo, tekstil, poyabzal va elektronika, agrosanoat	Kiritilgan 95% xorijiy investitsiyalar Hong Kong, Tayvan va Singaporga tegishli
Shenzhen	17500 dan ortiq	Yadro energetikasi, elektronika, mashinasozlik, yuqorintexnologiyalar va turli xizmatlar	Kiritilgan 85% xorijiy investitsiya Hong Kongga tegishli
Zhuhai	5000 dan ortiq	Og'ir sanoat, elektronika, dengiz va yo'l qurilishi, turizm va boshqa xizmatlar	Kritilgan 80% xorijiy investitsiyalar Hong Kong, Makao, Tayvan va Singaporga tegishli
Xiamen	4150 dan ortiq	Elektronika, tekstil, oziq-ovqat sanoati, kimyo sanoati va turizm	Kritilgan 80% xorijiy investitsiyalar Tayvanga tegishli
Hainan	7320 dan ortiq	Elektronika, telekommunikatsiya va yuqori texnologiya	Jami xorijiy investitsiyalar 22,3 mlrd AQSH dollar

Ammo MIZ hududiga olib kirilayotgan texnologiya va xomashyo uchun QQS va boj undirilmaydi. Lekin aksiz, shaxsiy daromad solig'i va boshqa soliq turlari imtiyozlardan xoli. Bundan tashqari, MIZ rezidentlari uchun soliq bilan bog'liq bo'lmagan imtiyozlar ham joriy etilgan, ular yer, suv, elektr energiyasi, gaz, internet, bino ijarasi kabi to'lovlardan to'liq yoki qisman ozod etiladi.

⁵⁷ www.tradingeconomics.com sayti ma'lumotlari

Xitoy YaIMi hajmini 2016-yilda tahlil qiladigan bo'lsak, provinsiyalar bo'yicha Guangdong, Jiangsu va Shandong mos ravishda 10,6 %, 10,2 % va 9,3 % ulush bilan yuqori o'rinlarni egallagan. Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, YaIMda eng ko'p ulush MIZ va boshqa erkin iqtisodiy zonalar joylashgan Xitoyning sharqiy va janubiy qirg'oqbo'yi hududlariga to'g'ri keladi⁵⁸.

3.2-jadval


2016 – yilda Xitoy YaIMining provinsiyalar bo'yicha taqsimlanishi⁵⁹

Provinsiyalar	O'rni	YaIM (CNY)	Nominal YaIM (ming AQSH doll.)	To'lov qobiliyati pariteti YaIM (ming AQSH doll)	Real o'sish darajasi (%)	Jami YaIMdagi ulushi (%)
Butun Xitoy		63,646,270	10,361,117	17,411,575	7.4	100
Guangdong	1	6,779,224	1,103,605	1,854,578	7.8	10.65
Jiangsu	2	6,508,832	1,059,587	1,780,607	8.7	10.23
Shandong	3	5,942,659	967,419	1,625,721	8.7	9.34
Zhejiang	4	4,015,350	653,668	1,098,471	7.6	6.31
Henan	5	3,493,938	568,786	955,829	8.9	5.49
Hebei	6	2,942,115	478,953	804,868	6.5	4.62
Liaoning	7	2,862,658	466,018	783,131	5.8	4.50
Sichuan	8	2,853,666	464,555	780,671	8.5	4.48
Hubei	9	2,736,704	445,514	748,674	9.7	4.30
Hunan	10	2,704,846	440,328	739,959	9.5	4.25

Bu yerda davlat ichida mavjud maxsus iqtisodiy zonalar 2016 yilda mamlakat YaIM da tutgan o'rni va uning qancha miqdorda o'sishini ham tasvirlagan. Ko'rib turubmizki Xitoy YaIM 10,361,117 ming AQSH dollari tashkil etgan. Yillik YaIM o'sishi 7.8 %ni tashkil etgan. Butun Xitoy iqtisodiy zonalar ishlab chiqargan va xizmatlari 63,646,270 (CNY) tashkil etgan. Bunda hududlar bo'yicha eng katta ko'rsatkichni Guangdong EIZ bergan va u 6,779,224 (CNY) ga teng. Mamlakat YaIM ga mos ravishda to'lov pariteti ham mos o'sib boryapdi.

⁵⁸ M. Hamdamov, i.f.n., dots., N. Xudoynazarova, JIDU. "Иктисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журналы. № 4, июль-август, 2015 йил

⁵⁹ www.google.com statistik ma'lumotlar asosida tayyorlandi.



3.1-rasm. Xitoy YaIM mlrd AQSH dollar ⁶⁰

Xitoy YaIMni tahlil qilganimizda 2009 yildan 2017 yilgacha ko'radigan bo'lsak, bu yerda mamlakat YaIM yildan yilga o'rtacha 7-8 foizdan o'sganini ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab, yuqorida aytib o'tganimizdek mamlakat yopiq mamlakatdan barcha investor va mahalliy investorlar uchun turli xil imtiyozlar berilayotgan sabab mamlakat rivojlanmoqda.

Xitoyga kiritilgan to'g'ridanto'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi yildan – yilga o'sish tendensiyasiga ega. Ayniqsa, 2014 – 2016 - yillarda eng yaxshi natija 124mlrd. AQShdoll.ni tashkil etgan bo'lib, Xitoy tarixidagi eng yirik mablag' hisoblanadi. Xitoy savdo aloqalarida MIZlar katta rol o'ynaydi. 2016-yilda ular tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmi o'tgan yilgiga ko'ra 14,7 % o'sgan. Bunda eksport – 394,98 mlrd. AQSh doll. (+13,6 %)ni, import esa – 304,85 mlrd. AQSh doll. (+16,2 %)ni tashkil etgan. Xitoyda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sanoatning asosiy ulushini egallaydi. U 1990-2011-yillardavomida 2,3

⁶⁰ www.tradingeconomics.com sayti ma'lumotlari

%dan 25,9 %ga ko‘tarilgan hamda ushbu sohaning YaIMdagi ulushi ham sezilarli darajada o‘sgan.

3.3-jadval

2017-yilda MIZlarning tashqi savdo ko‘rsatkichlari (mlrd. AQSH doll.)⁶¹

MIZ	Qiymat (mln AQSH doll.)			O‘shish darajasi (%)		
	Savdo aylanmasi	Eksport	import	Savdo aylanmasi	eksport	Import
Shenzhen	537,36	305,72	231,64	15,1	12,7	18,5
Xiamen	84,09	52,35	31,74	12,9	15,3	18,5
Zhuhai	54,17	26,60	27,56	18,6	23,0	14,6
Shantou	9,23	6,60	2,63	4,9	7,1	-0,3
Hainan	14,98	3,71	11,27	4,6	18,2	0,8
Jami	699,83	394,98	304,85	14,7	13,6	16,2

2017-yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar Xitoy umumiy eksportining 47,3 % va importining 44,8 %ini tashkil etgan. Ular yuqori texnologiyalar eksportida ham muhim rol o‘ynaydi. 2005-2013-yillarda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan yuqori texnologiyalar eksporti 79 %dan 82 %ga ko‘tarildi. Xitoyda faoliyat yuritayotgan MIZlar iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda⁶².

3.4-jadval

Dunyo erkin iqtisodiy zonalar yillik YaIM⁶³


Dunyo erkin iqtisodiy zonalar yillik YaIM			
Davlatlar	Zonalar(soni)	Export(\$ mlrd)	Ish bilan band aholi
AQSH	266	\$20.0	400,000
Xitoy	190	\$12.0	30,000,000
Indoneziya	115 (15 EPZs)	\$4.2	200,000
Flippen	100	\$27.0	907,000
Tailand	30	\$4.7	120,000
Hindiston	13	\$1.3	87,000
Tayvan	5	\$6.1	90,000
Janubiy Koreya	3	\$5.0	80,000

⁶¹ www.tradingeconomics.com va Xitoy statistik ma’lumotlari asosida tayyorlandi

⁶² M. Hamdamov, i.f.n., dots., N. Xudoynazarova, JIDU. “Иктисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы. № 4, июль-август, 2015 йил

⁶³ www.tradingeconomics.com va Xitoy statistik ma’lumotlari asosida tayyorlandi

Xorij tajribasini tahlil qilganimizda dunyoda turli xil erkin iqtisodiy zonalar mavjud bo'lib, ular orasida Xitoy XXR hududida 190 dan ziyod erkin iqtisodiy zonalar mavjud bo'lib, ulardan yiliga 12.0 mlrd. Dollarlik mahsulotlar export qilinadi.



3.2-rasm. Erkin iqtisodiy zonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi⁶⁴

Hozirgi zamon taraqqiyot etgan sari mamlakatlar o'z iqtisodiyotini rivojlantirish uchun mana bunday hududlarni tashkil etmoqda. Natijada Shimoliy Amerikada hozirda 266 ta erkin iqtisodiy zonalar faoliyat yuritmoqda. Markaziy Amerikada 228 taga yetdi. Janubiy Amerika davlatlarida 41 ta. Yevropa hududida 161 ta ga yetgan. Eng yuqori ko'rsatkichni Osiyo mamlakatlariga tegishli 280 ta teng. Biz Xitoy erkin iqtisodiy zonalarini kuzatadigan bo'lsak bu yerda 190 taga yetdi. Bu hududlarda erkin zonalarini turli xil ko'rinishlari mavjud.

3.2 Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalar jalb qilish va rivojlantirish istiqbollari

Bu kabi ma'lumotlarni tahlil qilganimizda, mamlakatda EIZni tashkil qilish, uning pirovard maqsadi emas. Hududlarni tashkil qilishdan maqsad, sanoat va iqtisodiyotning o'sish darajasini tezlashtirish va ularni modernizasiyalash, ichki bozorni to'ldirish va eksportning o'sishi hisobiga valyuta tushumlarini ko'paytirishdir.

⁶⁴ www.tradingeconomics.com va Xitoy statistik ma'lumotlari asosida tayyorlandi

EIZlarni tuzishdagi dastur – maqsadli bo'lishi, moliyaviy va tashkiliy muammolardan tashqari hammasi uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni qayd etishi lozim. Bularga quyidagilar kiradi:

- Korxonalar xo'jalik a'loqalarini qayta tashkil etish;
- Mamlakat tovar ishlab chiqaruvchilari manfaatlarini xalqaro bozorda davlat tomonidan himoyalash;
- Erkin tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida mahalliy to'rachilik va byurokratik to'siqlarni mavjudligi.

Mamlakatda yetarlicha rivojlangan infratuzilma mavjud emas, xalqaro dengiz portlariga chiqish yo'llari yo'q, chet ell investorlarini jalb qiluvchi va butun dunyo bo'ylab tarqalgan va faoliyat ko'rsatayotgan hamda tashkil etilayotgan hududlar bilan raqobatda yutib chiqishni ta'minlaydigan "joziba" yetarli darajada emas.

Lekin, bu – O'zbekistonda tashkil qilinadigan EIZlarning kelajagi yo'q, degani emas. Buning uchun EIZ rivojlanish modelini aniqroq belgilab olish kerak.

EIZlarni tashkil etish amaliyotining ko'rsatishicha, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun infratuzilma zarur bo'lib, uni rivojlantirish yirik capital qo'yilmalarni talab etadi. Xitoyda masala, 1 dollar chet el investitsiyasini jalb etish uchun 5,5 dollar milliy resurslarni transport tizimi, barqaror suv va energiya ta'minoti, shinam turar – joy uchun sarflash zarur bo'lgan.

Xorij tajribasini tahlil qilgan holda, shunday xulosaga kelish mumkin: milliy sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ko'p jihatdan mamlakatning o'z ichki bozorini himoya qilishga, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga va investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratib berishga qaratilgan siyosatiga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini, shu jumladan, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchilarning rivojlanishini rag'batlantirishga umumiy qabul qilingan va o'z samaradorligini ko'rsatgan, o'zini oqlagan iqtisodiy vositalardan foydalanmasdan erishib bo'lmaydi. Ushbu vositalarga quyidagilarni kiritish mumkin: soliq va kredit imtiyozlari, eksportga mahsulot ishlab chiqarishda tashqi moliyalash uchun davlat kafolatining bo'lishi, mahalliy mahsulotlarning tashqi

bozorga chiqishida davlatning hamkorligi, investorlarga qulay sharoit va ma'lum bir imtiyozlar "majmuasi" taklif qilinishi, chiqara olish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani yaratib berish. Agarda u qulay hududda joylashgan bo'lsa ya'ni masalan, Navoiy erkin iqtisodiy zonasi shahardan yaqinroqda joylashgan, bunda Navoiy viloyatidagi mavjud tumanlarni bir-biriga bog'lovchi yo'l tashkil etish kerak. Qaysi tumanda qandaydir xom – ashyo mavjud bo'lsa u o'sha yo'nalish bo'yicha korxonalar ochilsa va bu korxona iqtisodiy zona direksiyasiga bo'ysunsa va erkin iqtisodiy zonalardagi imtiyozlar shu yerda ham qo'llansa. Natijada investorga turli xil imkoniyatlar mavjud bo'ladi va har bir tuman ham rivojlanishi, aholining bandligi oshishi, aholi yashash va ishlash uchun joy izlashiga xojat qolmaydi.

Bundan tashqari O'zbekistonda EIZni tashkil etish va rivojlantirish imkoniyatlari keng. Shu qayd etib o'tish kerakki, O'zbekistonda tabiiy boyliklarning, mehnat resurslarining va hududlarda sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanganligini hisobga olib, kelajakda EIZning ko'rinishlarini tashkil etish mumkin.

EIZlarni tashkil etish va ular bo'yicha aynan bitta tashkilot mansub bo'lsa, xorijiy yoki mahalliy investor o'z mablag'ini kiritib ishlab chiqarish tashkil etish uchun u kelga kim bilan bog'lanish kerak degan tushunchalarga tez javob toppish kerak. Bundan tashqari tashkil etilgan tashkilotda yetarlicha mablag' bo'lsa, EIZlar daromadiga qarab ma'lum bir badallar to'lasa shu badallar hisobidan yoki mavjud korxonalar tomonidan to'lanadigan soliq va bojxona bojlarni davlat tashkil etilgan tashkilotga badal to'lab borsa, qachonki qaysidir korxona moliyaviy ahvoli yomonlashsa, yoki bozorda narxlar tushib ketganda yordam bera olsa bu korxonalar uchun motivatsiya bo'ladi va davlatga ishonchi ortadi. Natijada investor daromadi kafolatlanganligini ko'rish mumkin.

Respublikamizda EIZlar tashkil etishga oid "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonunga⁶⁵ ko'ra, O'zbekiston hududida:

- erkin savdo zonalari;

⁶⁵ O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zona to'g'risida"gi Qonuni 25.04.1996 yil. Qonun

- erkin ishlab chiqarish zonalari;
- erkin ilmiy – texnikaviyn va boshqa zonalar tuzilishi mumkin.

Erkin savdo zonalari konsignasiya omborlarini, erkin bojxona zonalarini, shuningdek tovarlarga ishlov berish, ularni o'rash-joylash, saqlash zonalarini o'z ichiga oladi. Erkin savdo zonalari tutash punktlarida, aeroportlarda, temir yo'l uzellarida yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududining boshqa joylarida tuzilishi mumkin. Hozirda ko'rishimiz mumkinki davlatimiz dengizga chiqish uchun G'arb bilan o'zaro to'g'ridan- to'g'ri bog'lanish maqsadida O'zbekiston-Turkmaniston-Ozarboyjon-Turkiya orqali yo'l ochilayabdi. Bu kelajakda bunday zonalarini ochish uchun talab oshib boraveradi.

3.5-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida tashkil etilishi mumkin bo'lgan erkin iqtisodiy zonalar turlari⁶⁶

EIZ joylashtirish mumkin hududning nomi	EIZning ixtisosligi	Tavsiya qilinadigan asosiy imtiyozlar
Erkin (sanoat) ishlab chiqarish hududi		
Chirchiq sh. Olmaliq sh.	Sanoat	Soliq, bojxona, moliyaviy, ma'muriy
Turizm hududlari		
Samarqand vil. Buxoro vil. Xorazm vil. Shahrisabz sh. Farg'ona vodiysi. Qoraqalpog'iston	Turizm Turizm Turizm Turizm Turizm Turizm	Soliq, viza hujjatlari, bojxona, ma'muriy
Ilmiy texnopark		
Toshkent sh. Chirchiq sh.	Sanoat	Soliq, joylarni ijaraga berish, konsulta'tiv xizmatlar ko'rsatish
Erkin savdo hududlari (funksional)		
Toshkent vil. Jizzax vil. Surxondaryo vil. Xorazm vil. Farg'ona vodiysi	Oziq – ovqat, qurilish mollari ishlab chiqarish va boshqalar	Soliq, moliyaviy, ma'muriy, bojxona

⁶⁶ Muallif tomonidan bir qancha adabiot va jurnallardan foydalangan holda tuzildi.

Erkin ishlab chiqarish zonalarini – tadbirkorlikni rag'batlantirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb etish maqsadida xo'jalik – moliyaviy faoliyatning alohida tartiboti joriy etiladigan hududlardir.

Erkin ishlab chiqarish zonalarini eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zonalarini, agropolislarni, tadbirkorlik zonalarini, industrial – iqtisodiy zonalarini va boshqa zonalarini o'z ichiga oladi. Erkin ilmiy – texnikaviy zonalar alohida ajratilgan hududlardan iborat bo'lib, u yerda ilmiy – ishlab chiqarish va o'quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o'rnatiladi. Erkin ilmiy – texnikaviy zonalar yuksak texnologiyalar amal qiladigan zonalar, texnoparklar, mintaqaviy innovasiya markazlari – texnopolislar shaklida tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi boy resursga egaligi va hududlarning tabiati, tarixiyli bilan boshqa davlatlarning hududlaridan ajralib turadi. Shu sababli mazkur hududlarda turli xil iqtisodiy zonalarini tashkil etish mumkin. Sanoat ishlab chiqarish zonalarini sifatida Chirchiq sh va Olmaliq shaharlarini aytishimiz mumkin. Turizm hududlari sifatida Samarqand vil, Buxoro vil, Xorazm vil, Shahrisabz sh, Farg'ona vodiysi va Qoraqalpog'iston Respublikalarini aytishimiz mumkin. Ilmiy texnopark Toshkent sh va Chirchiq sh. Erkin savdo hududlari Toshkent vil. Jizzax vil. Surxondaryo vil. Xorazm vil va Farg'ona vodiysi hududlari juda qulay hisoblanadi.

III bob bo'yicha xulosa

Xorij tajriba sifatida Xitoy Xalq Respublikasini o'rganganimizda, maxsus iqtisodiy zonalarini iqtisodiyotning barcha sohalarini modernizatsiyalash va yuqori texnologiyalar raqobatbardosh ishlab chiqarishga erishishda muhim omil bo'lmoqda. Oxirgi o'ttiz yil davomida Xitoyda kuzatilgan iqtisodiy o'sish haqiqatda "iqtisodiy mo'jiza" bo'lgani hech kimga sir emas. Uning rivojlanish tendensiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1976-yilgacha Xitoy yopiq iqtisodiyot hisoblanar edi. Shu davr mobaynida 500 mln. dan ortiq aholi qashshoqlikdan xalos bo'ldi. Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki,

ko'p yillar davomida hukm surgan markaziy rejalashtirilgan iqtisodiyotdan zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o'tish maqsadida 1978-yildan boshlab "Ochiq eshiklar" siyosati doirasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Xorij tajribasini tahlil qilgan holda, shunday xulosaga kelish mumkin: milliy sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ko'p jihatdan mamlakatning o'z ichki bozorini himoya qilishga, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga va investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratib berishga qaratilgan siyosatiga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini, shu jumladan, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchilarning rivojlanishini rag'batlantirishga umumiy qabul qilingan va o'z samaradorligini ko'rsatgan, o'zini oqlagan iqtisodiy vositalardan foydalanmasdan erishib bo'lmaydi. Ushbu vositalarga quyidagilarni kiritish mumkin: soliq va kredit imtiyozlari, eksportga mahsulot ishlab chiqarishda tashqi moliyalash uchun davlat kafolatining bo'lishi, mahalliy mahsulotlarning tashqi bozorga chiqishida davlatning hamkorligi, investorlarga qulay sharoit va ma'lum bir imtiyozlar "majmuasi" taklif qilinishi, chiqara olish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani yaratib berish. Agarda u qulay hududda joylashgan bo'lsa ya'ni masalan, Navoiy erkin iqtisodiy zonasi shahardan yaqinroqda joylashgan, bunda Navoiy viloyatidagi mavjud tumanlarni bir-biriga bog'lovchi yo'l tashkil etish kerak. Qaysi tumanda qandaydir xom – ashyo mavjud bo'lsa u o'sha yo'nalish bo'yicha korxonalar ochilsa va bu korxona iqtisodiy zona direksiyasiga bo'ysunsa va erkin iqtisodiy zonalardagi imtiyozlar shu yerda ham qo'llansa. Natijada investorga turli xil imkoniyatlar mavjud bo'ladi va har bir tuman ham rivojlanishi, aholining bandligi oshishi, aholi yashash va ishlash uchun joy izlashiga xojat qolmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak erkin iqtisodiy zonalar va ularni rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish, ularning huquqiy asoslarini ta'minlash, infratuzilmani shakllantirish va shu maqsadlarni amalga oshirishda xorij tajribalarini birlashtirgan holda quyidagi xulosalar shakllanadi:

1. EIZ deganda, mamlakatning strategic maqsadlarini amalga oshirishda, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar qonun doirasidagi faoliyat bilan shug'ullanishi hamda ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish qulay bo'lishi uchun maxsus boshqaruv tizimi (rejimi) o'rnatilgan hudud, ya'ni mamlakatning boshqa hududlarida amal qilmaydigan imtiyoz va rag'batlantirishlar tizimi amal qiladigan hudud tushuniladi.

Yaratilgan shart-sharoitlar EIZga tashqi dunyo bilan yuqori darajada iqtisodiy aloqada bo'lish imkonini beradi, bojxona, soliq va investitsion rejimlar ichki hamda tashqi investitsiyalar qulay hisoblanadi.

2. Dunyo miqyosida EIZlar soni domiy ravishda ortib bormoqda, ularni tashkil qilishdagi geografik chegaralar kengaymoqda, ularning shakli o'zgarib, tashqi savdo zonalaridan eksport-ishlab chiqarish va kompleks hududlarga aylani bormoqda. Ularni o'zida mujassamlashtiruvchi EIZlar milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligi bilan integratsiyalashuviga muhim omilga aylanmoqda.

3. Jahon amaliyotiga ko'ra, qator davlatlarning iqtisodiy rivojlanishiga EIZlar kuchli ta'sir ko'rsatayotganligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

➤ Yangi ish o'rinlari yaratiladi, malakali mutaxassislar shakllantirilib, mahalliy ishchi kuchi zamonaviy texnikadan foydalanishi natijasida yangi mehnat uslublarini o'zlashtiradi;

➤ EIZlarga investitsiya jalb qilayotgan kompaniyalar yer va infratuzilma ob'yektlari uchun to'lovlarni o'z zimmasiga oladi va xizmat uchun haq to'laydi; mahalliy aholining turmish darajasi oshadi, daromadlari o'sadi, ichki bozorning yuqori sifatli mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoji to'laroq qondiriladi;

➤ EIZlarda faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalar boshqalarga nisbatan yaxshiroq sharoitlarga ega bo'ladi. Bunday zonalarda ishlab chiqarish sarf-xarajatlari, xomashyo va materiallar olib kirish bilan bog'liq soliq va bojlar yo'qligi, ishchi kuchining nisbatan arzonligi ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini pasaytirib, uning raqobatbardoshligini oshiradi;

➤ Hududlarda tadbirkorlik faoliyatining yanada jonlanishi, eksport salohiyatining oshishi kabilar hisobiga iqtisodiyotning ma'lum tarmoq va sohalari rivojlanishiga ko'maklashadi.

4. EIZ muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjudligi muhim jihat hisoblanadi, ya'ni: mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va qulay investitsion muhitning shakllanganligi; xorijiy va mahalliy investorlarni rag'batlantiradigan puxta ishlab chiqilgan huquqiy bazaning mavjudligi; ishlab chiqarish hamda tijorat infratuzilmasining rivojlanganligi; tabiiy geografik muhit; qulay iqtisodiy konjunktura.

5. AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiyada EIZ, aksariyat hollarda, tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada kuchaytirish, mahalliy siyosatni amalga oshirish orqali deprimis tumanlardagi kichik va o'rta biznesni jonlantirishga va hududlararo rivojlanishdagi farqlarini yo'qotish, ya'ni rivojlanishdan ortda qolayotgan hududlarga yordam berish maqsadida tashkil etiladi. EIZlar faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga mamlakatning boshqa hududlariga qaraganda, xo'jalik faoliyatini yuritishi uchun qator yengilliklar va sezilarli darajadagi moliyaviy imtiyozlar beriladi. Bu maqsadlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilmasligi bilan xususiyatlanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda EIZlarni tashkil qilishdan maqsad rivojlangan mamlakatlarnikidan biroz farq qiladi., ya'ni, eng avvalo, xorijiy investitsiyalarni, zamonaviy texnika-texnologiyani jalb qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, ishki kuchi malakasini oshirish masadlarida tashkil qilinadi.

6. EIZ faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatlarda eksportning o'sish darajasi bunday hududlari yo'q mamlakatlar eksport o'sish darajasidan yuqoriroq bo'ladi. Aksariyat holatlarda EIZning umumiy eksportdagi ulushi juda band bo'lib, 13 foizdan 82 foizgacha tebranadi. Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarida EIZlardan

tayyor mahsulot eksport qilish hisobiga kata miqdorda chet el valyutasida daromad olish imkoni yaratilmoqda.

7. Xitoydagi o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyati bu ichki iqtisodiy islohotlarning tashqi iqtisodiy aloqalarni faollashtirish bilan uzviy bog'langanligi, tashqi savdo va investitsion rejimning erkinlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilganligida o'z aksini topadi.

Erkin iqtisodiy zonalarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiylar ishlab chiqildi:

1. Qonunchilikda belgilangan EIZlarda soliq imtiyozlarini qo'llash rejimiga muvofiq, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning hajmi keying pog'onadagi imtiyozlar darajasiga yetkazilganda, soliq imtiyozlarining muddati ilgari amalda bo'lgan imtiyoz muddatini chegirgan holda hisoblanadi. Ushbu holat investorlarni mazkur erkin iqtisodiy zonalarga jalb etilayotgan investitsiyalarni hajmini oshirishga rag'batlantirmaydi. Shundan kelib chiqib, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning hajmi keying pog'onadagi imtiyoz darajasiga ko'paytirilganda, soliq imtiyozlarining muddati uzaytirilishi, ya'ni, avvalgi pog'onada o'tab bo'lingan imtiyozlar muddatini chegirish amaliyoti bekor qilinishi maqsadga muvofiq.

2. Jahon amaliyoti tajribasiga asoslangan holda, mamlakatimizning alohida tanlab olingan hududlarida texnologik parklar, erkin tadbirkorlik, sanoat ishlab chiqarish va erkin turizim hududlarini tashkil etish maqsad bo'lar edi. Hozirgi kunda mamlakatimiz xorij tajribasini o'rgan holda o'zimizda mavjud qadimiy shaharlarni turistik oqimini oshirish maqsadida turizimga alohida e'tibor berilish boshlandi. Xitoy EIZlarida ishlab chiqarishni rivojlantirish, eksportni ko'paytirish bo'yicha to'plangan tajribadan kelib chiqib, ular asta –sekin mamlakatimizning boshqa hududlarida ham tadbiriq etilishi lozim:

➤ Mamlakatimizning aholi zich joylashgan, ortiqcha ishchi kuchlari mavjud bo'lgan hududlarida erkin tadbirkorli hududlarini tashkil etish orqali aholini ish bilan ta'minlash darajasini oshirish mumkin. Bunda ularda yaratiladigan yangi ish o'rinlari soniga qarab, tabaqalashtirilgan tarzda soliq tartibini qo'llash, kichik

korxonalardan olinadigan yagona soliqqa soliq ta'tillari berish va korxona ixtiyorida qoladigan soliqlar summasini maqsadli ravishda korxona faoliyatini kengaytirish va modernizasiyalarga yo'naltirilishini belgilab qo'yish lozim;

➤ Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishida, jumladan, mahalliy xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatida innovatsiyalarni joriy qilishda ilmiy texnoparklar muhim rol o'ynaydi. AQSH va XXR tajribalariga asoslangan holda, Toshkent shahrining talabalar shaharchasi hududida (O'ZMU, TDTU va Turin politexnika instituti hududlari atrofida va Axborot texnologiya universiteti va Inha universiteti hamkorligida) ilmiy texnoparklar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur texnopark faoliyatini jumladan, ilmiy tadqiqot markazlari, o'quv laboratoriyalari, ish jihozlari va uskunalar ta'minotini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamai huziridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish Qo'mitasi mablag'lari, innovatsion loyihalar buyurtmachilari hisoblangan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning homiylik mablag'lari, venchur fondlari hamda chet ellik buyurtmachi korxonalar mablag'lari hisobiga amalga oshirish tavsiya etiladi.

3. AQSH va Braziliya kabi davlatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda ham EIZlarda yaratiladigan magsulotlar tarkibida mahalliy komponentlar ulushi yuqoriroq bo'lishini ta'minlash lozim. Buning uchun EIZlardagi loyihalarda mahalliy xomashyoning minimal ulushi ishlab chiqarish turiga qarab belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiq.

4. EIZlarga investorlarni yanada ko'proq jalb etish, loyihalarni tezroq amalga oshirishni ta'minlash uchun hududlarda investorlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim qilishning internet orqali ishlaydigan electron usulini joriy etish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim. EIZlarga doir maxsus internet portal tashkil etib, unda chet el investorlariga ro'yxatdan o'tish, hududda ish yuritish, hisobot taqdim etish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni kiritish va boshqa barcha zarur ma'lumotlar bazasini yaratish hamda mazkur bazani uzluksiz eng so'ngg'i ma'lumotlar bilan to'ldirib borish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi– T.: “O'zbekiston”, 2014 y.
- 1.2. 1996 yilning 25 aprelda mamlakat parlamenti O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida" qonuni
- 1.3. O'zbekiston Respublikasi Investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonuni 24.12.1998 y. N 719-I
- 1.4. O'zbekiston Respublikasi Chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonuni. 30.04.1998 й. N609-I
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risidagi qonuni. 30.04.1998 й. N611-I
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida»gi 2010-yil 15-dekabrdagi PQ-1442 sonli qarori.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral.
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.10.2017 y. PQ-3356-son "Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalar faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori
- 1.10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2017 y. 691-son "2017-2019 yillarda "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm" va "Parkent-farm" erkin iqtisodiy zonalar hududida transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ishlab chiqarish infratuzilmalarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

- 1.11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.08.2017 y. 623-son "Vazirlar Mahkamasining Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 10 apreldagi 196-son qaroriga qo'shimchalar kiritish, shuningdek vazirlar mahkamasining 2011 yil 10 yanvardagi 15-f-son farmoyishini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi Qarori
- 1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.08.2017 y. PQ-3175-son "Erkin iqtisodiy zonalar samarali faoliyat ko'rsatishi uchun vazirliklar, idoralar va joylardagi davlat hokimiyati organlarini muvofiqlashtirishni kuchaytirish va ularning mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
- 1.13. Karimov I.A. "O'zbel xalqi xech qachon, xech kimga qaram bo'lmaydi" T.: "O'zbekiston", 2000y. T.8. - 105 bet.
- 1.14. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" T. "O'zbekiston" 2009y. 37-bet.
- 1.15. Karimov I.A. "Jahon inqirozining oqibatlarini yengish mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari". 18- Jild. – T.: O'zbekiston, NMIU 2010. – 198 bet.
- 1.16. Mirziyoyev.Sh.M."Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak." "O'zbekiston" 2017y. 29- bet .
- 1.17. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
- 1.18. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.
- 1.19. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b.

- 1.20. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: : “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

II.Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

- 2.1. Malikov T.S. Moliya: O'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.: “Iqtisod-moliya”, nashriyoti, 2018 y. – 268b
- 2.2. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. Moliyaviy tizim: Zamonaviy talqin: o'quv uslubiy qo'llanma. - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2016, - 116 b.
- 2.3. Malikov T.S., Jalilov P.T., Byudjet-soliq siyosati: monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi, Toshkent moliya instituti.-T.Akademnashr, 2011. – 472 b.
- 2.4. Vahabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.:«Moliya», 2010.
- 2.5. Igonina L.L. Investitsii. Uchebnoe posobie. M.: Ekonomist, 2005.–478 b.
- 2.6. Kasyanenko T.G., Maxovikova G.A. Investitsii. Uchebnoe posobie. M.: Eksmo, 2009.–240 b.
- 2.7. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. T.:Iqtisod-moliya, 2014.
- 2.8. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten 2016 yil yanvar-dekabr.T.:Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.2017.

- 2.9. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten 2015 yil yanvar-dekabr. T.: Iqtisodiy tadqiqotlar markazi. 2016.
- 2.10. Mahmudov N.M, Madjidov Sh.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010.
- 2.11. Rashidov O.Yu. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish. T.: TDIU, 2007.
- 2.12. Tkachenko I.Yu., Malix N.I. Investitsii. Uchebnoe posobie. M.: Izdatelskiy tsentr «Akademiya», 2009.–240 b.
- 2.13. Yuldashev R.Z. Investitsionnoe obespechenie privatizirovannix predpriyatiy v Uzbekistane: upravlencheskiy aspekt. Monografiya. –T.: Iqtisodiyot. 2009.–93 b.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

- 3.1. Axmadjanov SH. Allakuliyev A. O'zbekistonda natijaviylikka yo'naltirilgan Byudjetlashtirish masalalri va xorij tajribasi. "Moliya" ilmiy jurnali. 4/2014. 133-bet.
- 3.2. Жиянова Н. Особенности финансирования социальной сферы на современном этапе экономического развития. "Moliya" ilmiy jurnali. 2/2014. 10-bet.
- 3.3. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistic to'plam. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2011.
- 3.4. "Byudjet daromadlarini barqarorlashtirish va samarasiz xarajatlarni qisqartirish yo'llari " Xaydarov N. X. Toshkent moliya instituti i.f.d., professor, Berdikulova N. A., TMI magistranti, Toshkent «Iqtisod-moliya» 2015, 43-bet
- 3.5. Agnieszka Jachowicz. Public finance consolidation in Czech Republic and Poland – what after crisis?. Procedia – Social and Behavioral Sciences. Vol. 220, May 2016, Pages 142-149.

- 3.6. Ziyayev A. Bank kapitalining o'sish omillari va manbalari.//Bozor,pul va kredit. – Toshkent 2016. №3. – B. 22-26.
- 3.7. Axmedov A.S. O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilashda tijorat banklarining investitsion faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.//Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent 2015. №3.
- 3.8. Saiful Bahri Mohd Kamal, Dahlia Zawawi, Dahlan Abdullah. Entrepreneurial Orientation for Small and Medium Travel Agencies in Malaysia. Procedia Economics and Finance. Vol. 37, 2016, Pages 115 – 120, c.
- 3.9. Internet saytlari
- <http://www.uza.uz>
 - <http://www.chamber.uz>
 - <http://www.stat.uz>
 - <http://www.mf.uz>
 - <http://www.mfer.uz>
 - <http://www.lex.uz>
 - <http://www.press-service.uz>
 - www.navoi-fiez.uza
 - www.regnum.ru
 - www.nfiez.com
 - www.jahonnews.uz
 - www.agmk.uz/idex.php
 - www.navoiy.uz/hokimiyat/101-n
 - www.yangiliklar.net
 - www.zamin.uz>economy> 14881-ozb..
 - [www.tradingeconomics.com /china/gdp-per-capita](http://www.tradingeconomics.com/china/gdp-per-capita).
 - <https://www.scopus.com>,
- (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567115009880>).